

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**QORAYEVA LOBAR ABRAYQUL QIZI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK 336.1**

**“KORPORATIV TUZILMALARDA MOLIYAVIY NAZORAT  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI”**

**Mutaxassislik: 5A230602- “Moliyaviy Menejment”**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_  
**Imzo**

**I.f.n. Botirov A.A.**

**TOSHKENT – 2016**

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....5

### **I bob. Tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini moliyaviy nazorat qilishning nazariy va huquqiy asoslari**

1.1 Moliyaviy nazoratning iqtisodiy mohiyati va uning tashkiliy asoslari.....9

1.2. Korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini moliyaviy nazorat qilish usullari.....21

1-bob bo'yicha xulosalar.....28

### **II bob. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilishning amaldagi holati tahlili**

2.1 Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq organlari tomonidan nazorat qilishning amaldagi mexanizmi va uning tahlili.....30

2.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularga nisbatan javobgarlik masalalari.....39

2-bob bo'yicha xulosalar.....45

### **III bob. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish masalalari**

3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish istiqbollari.....47

3.2. Korporativ tuzilmalar moliyaviy nazorat tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....55

3-bob bo'yicha xulosalar.....62

**XULOSA**.....65

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.....69

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va oqilona moliyaviy siyosatni amalga oshirilishi hamda korxonalarda moliyaviy nazoratni samarali tashkil etilganligi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sanaladi. Albatta, bu jarayonda iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalarda moliyaviy nazoratni samarali tashkil etilishi eng avvalo, korxonalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, belgilangan ustuvor vazifalarni og'ishmay bajarishda muhim dastak sanalsa, keyingi navbatda esa inqiroz davridan og'ir larzalarsiz chiqib ketishda, korxonada joriy va strategik vazifalarni o'z vaqtida bajarilishiga, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xajmini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Ta'kidlash joizki, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyasini tashkil etilishi va nazoratni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar moliyasini tartibga solish, ularni moliyaviy holatini to'g'ri baholash hamda samarali moliyaviy nazoratni tashkil etish, pul mablag'larini yangi manbalarini izlab topish va ularning holatini muntazam tahlil qilib turish borasida bir talay ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Amaliyotda moliyaviy nazorat korxonalar va muassasalarda uyg'un holda olib borilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarning, jumladan, huquqiy, tashkilish shart-sharoitlarning yaratilmaganligi, bu sohada qabul qilingan huquqiy va me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklarni aniqlash, ularni takomillashtirish, qolaversa, rivojlangan davlatlardagi tajribalarni keng va mukammal o'rganish masalalari ham amalda o'z echimini kutib turgan jiddiy muammolardan hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz tanlagan dissertatsiya ishi mavzusi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ma'lumki, bir tomondan, davlat bilan, ikkinchi tomondan, korxonalar, tashkilotlar, firmalar, xususiy shaxslar o'rtasida shakllangan o'zaro iqtisodiy munosabatlar davlatning moliyaviy tizimini tashkil etadi. Davlat barcha iqtisodiy formatsiyalarda ham takomillashgan moliyaviy mexanizmlar va samarali

moliyaviy tizimni tuzishga intiladi, va buning natijasiga esa uning iqtisodiy farovonligi, shu bilan birga siyosiy barqarorligi ta'minlanadi. Ijtimoiy moliyaviy resurslarni, ya'ni davlat byudjetini boshqarish jamiyat oldidagi mas'ullik asosida kechadi. Uning natijasida esa davlat, shuningdek har qanday darajadagi boshqaruv unsuri sifatida moliyaviy faoliyatni nazorat qilishga tabiiy ravishda zarurat tug'iladi.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq bozor munosabatlariga o'tish, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari o'ziga mos bo'lgan moliyaviy tizim va mexanizmlar, shuningdek, moliyaviy nazoratni shakllantirishni taqozo etdi. Mustaqillikning o'tgan davrlarida erishilgan muvaffaqiyatlar to'g'risida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan edi: "O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir. O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi<sup>1</sup>."

Erishilgan natijalarni saqlab turish va yanada rivojlantirish davlatimiz byudjet siyosatidagi muhim vazifalardan bo'lib, bu byudjet mablag'larining manzilli va maqsadli yo'naltirilishining moliyaviy nazoratiga ham bevosita

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.

bog'liqdir. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi, moliyaviy nazorat tizimining qay darajada shakllanishi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy nazoratning mohiyati va yangicha talqini shundan iborat bo'lishi lozimki, uning yordamida birinchidan, davlat muassasalari tomonidan o'z moliyaviy faoliyatlarini huquqiy me'yorlarga rioya etilishini kuzatib borishlari; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, ushbu xarajatlarning byudjet tashkilotlari oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish orqali ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz tanlagan mavzu dolzarb masalalardan biri sanaladi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Korporativ tuzilmalarda moliyaviy nazoratni samarali tashkil etish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardani E.Lorens, A.Arens, B.Nidlz, Dj. Lobbek., F. Defliz, Dj. Robertson, G.B.Polyaka, V.V.Ivanova, V.V.Kovalova, A.D. Sheremet va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek respublikamizning etakchi iqtisodchi olimlari M.Sh. Sharifxo'jaev, Yo.Abdullaev, O.O.Olimjonov, T.S.Malikov, A.V.Vahobov, A.K. Ibragimov, E.A. Akramov, B.Toshmurodova, A.Karimov, N.X.Xaydarov, M.M.Yo'ldoshev, Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B., Sh.Fayziev, A.Avloqulov va boshqalar tomonidan ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borilgan.

**Tadqiqot ob'ekti.** Respublikamizda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va ularni moliyaviy nazorat qilish tizimi nazorat ob'ekti hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi..

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** Ishning maqsadi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy nazorat qilish mexanizmini samarali tashkil etish, takomillashtirish va bu sohadagi mavjud muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **asosiy vazifalar belgilab olingan:**

- moliyaviy nazoratning iqtisodiy mohiyati va uning tashkiliy asoslari o'rganish;

- tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy nazorat qilish usullari va huquqiy asoslarini o'rganish;

- tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq nazoratini tashkil etish mexanizmini aniqlash va uning amaldagi holatini tahlil qilish;

- O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratining amaldagi holatini tahlil qilish;

- tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq nazoratini takomillashtirish istiqbollari aniqlash;

- O'zbekistonda moliyaviy nazorat mexanizmini samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganish va tegishli xulosalarni shakllanitirish.

**Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati tadbirkorlik sub'ektlarida moliyaviy nazoratni tashkil etishning me'yoriy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda moliyaviy nazorat mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy nazorat qilishda, moliyaviy nazoratni yuritish bo'yicha yo'riqnoma va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Dissertatsiya ishining tarkibiy tuzilishi.** Dissertatsiya ishining tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Shuningdek ishga, jadval va rasmlar keltirilgan.

## **I bob. Tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini moliyaviy nazorat qilishning nazariy va huquqiy asoslari**

### **1.1 Moliyaviy nazoratning iqtisodiy mohiyati va uning tashkiliy asoslari**

Moliyaviy nazorat doimiy ravishda uzluksiz davom etadigan jarayon hisoblanadi. Moliyaviy nazorat bozor munosabatlarini takomillashtirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish tizimining yetakchi zarur elementi sifatida shakllanib, rivojlanib boradi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda mavjud milliy boyligimizni va yaratilgan moddiy ne'matlarimizni hamda aholining manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgandir. Davlatning moliyani boshqarish borasidagi faoliyati ko'p qirrali, turli-tuman moliyaviy munosabatlarni tashkil qilishdan iborat bo'lib, ular moliya nazorati orqali amalga oshiriladi.

«Moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig'indisidir». Moliyaviy nazorat davlatning o'z funktsiyalarini amalga oshirish jarayonida, davlat nazoratining asosiy turiga aylanadi. Moliyaviy nazorat, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlari hamda, pul-moliya-kredit munosabatlar tizimida va mexanizmida ob'ekt zarur kategoriyalarning elementi bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tomondan, moliyaviy nazorat keng xalq ommasining iqtisodiyotini boshqarishdagi sub'ektiv faoliyatining tashkiliy qismi shaklida namoyon bo'ladi.

Davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini muvafaqqiyatli amalga oshirilishi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari soha va bo'g'inlarida moliyaviy resurslarini shakllantirishni samaradorli, tejamkorli va to'liq hamda maqsadli yo'naltirilgan holda foydalanish bilan ta'minlanadi.

Respublika iqtisodiyotining holatini, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarni aniqlash, nazorat va tahlil qilish, davlatning iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarish doirasidagi dolzarb faoliyatidir.

Moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funktsiyasi bo'lib, uning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar

mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'ektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qaraladi:

1. Barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyati;

2. Moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

Barcha iqtisodiy sub'ektlarning (davlat, korxonalar va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat, bir tomondan, o'zaro ta'sirchan va ikkinchi tomondan, alohidalashgan (mustaqil bo'lgan) mustaqil bo'lgan sohaga bo'linadi:

- Davlat moliyaviy nazorati;
- Nodavlat moliyaviy nazorati.

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari nazoratni amalga oshirish metodlarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining pirovard maqsadlari bo'yicha tubdan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslar tushirishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv harajatlarini minimallashtirish bo'lsa, nodavlat moliyaviy nazoratning bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasiga ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat.


Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitutsiyasi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Davlat



moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat proportsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga tegishli hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati va uning vazifalari xususida ushbu bobning uchinchi paragrafida yanada batafsil to'xtalab o'tamiz.

Nodavlat moliyaviy nazorati ikkiga bo'linadi: ichki (firma ichidagi, korporativ) va tashqi (auditorlik).

Ichki firmaviy moliyaviy nazorat korxonasi, muassasa, firma, korporatsiyalar o'zining iqtisodiy xizmatlari, ya'ni buxgalteriya, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmatlari va boshqalar tomonidan o'z korxonasi, filiallari va shu'ba tuzilmalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Umuman olganda, jahon amaliyotida moliyaviy nazoratni tavsiflanishi quyidagi rasm ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Jahon amaliyotida moliyaviy nazoratni tavsiflanishi<sup>2</sup>.**

<sup>2</sup> Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: 2007. – 322 bet.

Ichki nazorat xizmatlari doimiy ravishda pul mablag'larini (shaxsiy, qarziy, jalb etilgan) ishlatilishining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi kuzatadi, rejalashtirgan moliyaviy natijalar bilan haqiqiy moliyaviy natijalar qiyoslab, tahlil qiladi, investitsion loyihalarning natijalariga moliyaviy baho beradi, korxonaning moliyaviy holatini nazorat qiladi. Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashtirishning butun jarayonini kuzatib boradi.

Ichki nazoratning ko'rinishlaridan biri bo'lgan va "post-audit" nomini olgan nazorat biznes-rejaning moliya bo'limidagi ishlab chiqarish-investitsiya faoliyatining har bir bosqichida rejashtirilgan moliyaviy natijani haqiqiy holat bilan taqqoslash, ularni nomuvofiq kelishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish, chiqimlarni kamaytirish va moliyaviy rejalashtirish metodlarini yaxshilash yo'llarini qidirishni anglatadi. Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor tizimiga o'tilishi va turli tijorat tizimlarining paydo bo'lishi bilan ularning moliyaviy ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini ob'ektiv baholashga nisbatan talablar keskin oshirildi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

Auditorlik xizmatlari quyidagi boshqa xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin:

- buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va olib borish;
- daromadlar haqida buxgalteriya hisobotini va deklaratsiyani tuzish;
- moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va bashoratlash;
- buxgalteriya xizmati xodimlarini o'qitish va qonunchilik masalalarida maslahat berish;
- auditorlik tekshiruvlari natijasida olingan tavsiyalarni ishlab chiqish va boshqalar;

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbusli bo'lishi mumkin. Agar tashabbusli tekshiruv iqtisodiy sub'ektning o'z qarori bo'yicha amalga oshiriladigan bo'lsa, majburiy audit uning xohish-irodasi va istagiga bog'liq bo'lmagan va qonunchilikda belgilangan hollarda majburiy tartibda o'tkaziladi. Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishtirok etadi. Auditorlik tashkilotini tanlash mulk egasi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt qatnashchilari (aktsiyadorlari) umumiy majlisi bilan kelishiladi. Auditning asosiy tamoyili uning mustaqilligi bo'lib, bunda asosan tekshirilayotgan sub'ektning moliyaviy hisoboti to'g'risidagi kasbiy fikrini ifodalashda biror tomonning ta'siri ostida bo'lishdan uning ozod ekanligini tushunish lozim. Shu bilan birga, yana shuni hisobga olish kerakki, audit barcha mamlakatlarda etarli darajada qattiq tartibga solinadi.

Ayrim davlatlarda (masalan, Frantsiyada) bu jarayonga davlat aralashib, u audit me'yori va normativlarini belgilaydi, auditorlarni va auditorlik firmalarini ro'yxatdan o'tkazadi hamda ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. O'zbekistonda ham xuddi shunday holat tarkib topgan bo'lib, bu erda davlat auditorlik faoliyatini tartibga solishni faol amalga oshiradi. U moliyaviy qiyinchiliklari iqtisodiyotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan muhim korxonalarni ajratib, ularda audit o'tkazish majburiy ekanligini belgilaydi, auditorlarga (ma'lumoti, malakasi, imtihonlarni topshirish tartibi, mas'uliyati, javobgarligi va boshqalar bo'yicha) talablar qo'yadi.

Auditni davlat tomonidan tartibga solishni tashkil etish qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar vositasida amalga oshiriladi. Bunda auditorlar jamoatchilik tashkilotlari tomonidan auditning o'zini o'zi boshqarishiga katta imkoniyat beriladi. Qayd etish lozimki, har bir mamlakatda jamoat tashkilotlarining rivojlanishi va ta'siri turlicha amalga oshiriladi. Masalan, AQSh va Angliyada auditorlik faoliyati asosan ixtisoslashtirilgan professional jamoat auditorlik tashkilotlari tomonidan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarining roli va maqomini belgilash, soliq va

boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalari hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida so'nggi vaqtlarda bizning mamlakatimizda auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi<sup>3</sup>. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (litsenziyalovchi organ) tomonidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko'rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish metodlarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining pirovard maqsadlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq ham qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo'lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazoratning (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o'zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo'yilgan.

Pul munosabatlari, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishdagi qayta taqsimlash jarayonlari, shu jumladan, barcha darajalardagi va xo'jalikning barcha bo'g'inlaridagi pul fondlari shaklidagi moliyaviy resurslar moliyaviy nazoratning ob'ekti hisoblanadi. Tekshiruvlarning bevosita predmeti sifatida foyda, daromadlar, rentabellik, tannarx, muomala xarajatlari kabi qiymat ko'rsatkichlari maydonga chiqadi. Puldan foydalanish orqali va ayrim hollarda pulsiz (masalan, barter bitimlari) amalga oshiriladigan operatsiyalarning barchasi moliyaviy nazoratning sohasi hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat o'z ichiga quyidagi tekshiruvlarni oladi:

- iqtisodiy qonunlarning talablariga rioya etish (MD ni taqsimlash va qayta taqsimlash proportsiyalarining optimalligi);
- byudjet rejasini tuzish va ijro etish (byudjet nazorati);

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori.

- korxonalar va tashkilotlar, byudjet muassasalariga tegishli bo'lgan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
- o'zaro soliq munosabatlari.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazorat tizimi, asosan, bir tipda bo'lib, quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- bevosita mamlakatning parlamenti yoki prezidentiga bo'ysunuvchi hisob palatasi. Bu tashkilotning bosh maqsadi davlat mablag'larining sarflanishi ustidan umumiy nazoratni o'rnatishdir;
- asosan solikli daromadlarning davlat xazinasiga kelib tushishini nazorat qiluvchi va mamlakat prezidenti, hukumati yoki moliya vazirligiga bo'ysunuvchi soliq muassasi;
- quyi tashkilotlarini tekshiruvchi va taftish qiluvchi davlat tashkilotlarining tarkibidagi nazorat qiluvchi organlar;
- hisobot hujjatlarining ishonchliligini va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tijorat asosida tekshiruvchi nodavlat nazorat xizmatlari;
- asosiy vazifasi xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va foydani oshirish bo'lgan ichki nazorat xizmatlari.

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajriba asosida moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy printsiplarini ishlab chiqqanki, hozirgi paytda ularga rioya qilishga dunyoning har bir rivojlangan davlati intiladi. Bu printsiplar INTOSAI<sup>4</sup>ning Lima deklaratsiyasida o'z aksini topgan. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:


- mustaqillik;
- ob'ektivlik;
- kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik);
- oshkoralik.

O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy 6 ta tamoyillarini sanab o'tganlar (2-rasm). Moliyaviy nazoratning mustaqilligi nazorat organining moliyaviy jihatdan mustaqilligi,

---

<sup>4</sup> INTOSAI – dunyoning 178 mamlakati oliy nazorat organlarining Xalqaro tashkiloti. Uning doirasida mintaqaviy tashkilotlar ham amal qiladi. Ulardan biri EVROSAI bo'lib, u oliy nazorat organlarining Evropa tashkilotidir.

nazorat organlari rahbarlarining vakolat muddatlarining parlament muddatlaridan uzoqligi, shuningdek ularning konstitutsion xarakteri bilan ta'minlanishi kerak.



## 2-rasm. Moliyaviy nazoratni tashkil etish tamoyillari<sup>3</sup>

Ob'ektivlik va kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik) nazoratchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka so'zsiz itoat etilishini, taftish ishlarini amalga oshirishning belgilangan (o'rnatilgan) standartlariga (andozalariga) qattiq rioya etish asosida nazoratchilar ishining yuqori kasbiy darajada bo'lishini taqoza etadi. Oshkoralik davlat nazoratchilarining jamotchilik va ommaviy axborot vositalari bilan doimiy aloqada bo'lishini ko'zda tutadi.

Ana shu asosiy printsiplardan amaliy xarakter kasb etuvchi moliyaviy nazoratning quyidagi boshqa printsiplari kelib chiqishi mumkin:

- natijalilik;
- nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyliigi;
- nazorat sub'ektlarining sotib oluvchanmasligi;
- tekshirish va taftish dalolatnomalarida keltirilgan ma'lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi;
- preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluvchanligi);
- moliyaviy jinoyatlar bo'yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumptsiyasi;

<sup>3</sup> B.A.Musaev, Z.X.Srojiddinova. Kontrolno-ekonomicheskaya rabota finansovix organov. O'quv qo'llanma 2006 y.

- turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi va boshqalar;

Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi qonunlar qabul qila turib, har bir davlat, odatda, yuqoridagi printsiplarga tayanadi (asoslanadi). Bir vaqtning o'zida, har bir davlatda nazorat harakatlarining o'z reglamenti (tartibi va ketma-ketligi) mavjud bo'lib, bu narsa pirovardida moliyaviy nazoratning natijalariga o'z ta'sirini, albatta, ko'rsatadi.

Moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funktsiyasi bo'lib, uning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. U nazoratning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda, pul jamg'armalari harakatining butun jarayonida kuzatiladi. Shu sababli moliyaviy nazorat har qanday ishlab chiqarishda xo'jalik yuritish mexanizmining ob'ektiv ravishda zaruriy bo'lgan tarkibiy qismidir, deb tasdiqlash mumkin.

Moliyaviy nazorat davlat nazoratining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy nazoratning mohiyati uning vazifasida o'z ifodasini topadi. Moliyaviy nazorat, masalan, moliyaviy mablag'lar holati ustidan olib boriladigan nazorat yoki byudjetni to'ldirish, markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalaridan foydalanish operatsiyalari ustidan olib boriladigan nazorat va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka (balanslilikka) ta'sir ko'rsatish;
- davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash;
- moliyaviy resurslarni ko'paytirishning ichki xo'jalik zaxiralarini qidirib topish va boshqalar.

Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy nazoratga quyidagicha ta'rif berish mumkin, moliyaviy nazorat - bu pul mablag'larini yig'ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir.

Moliyaviy nazoratni olib borishda albatta qonunga rioya etish talab qilinadi. Buning mazmuni shundan iboratki, respublika hududida faoliyat ko'rsatuvchi barcha davlat organlari (mansabdor shaxslari), korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga og'ishmay amal qilishlari lozim. Moliyaviy nazorat moliya huquqi tizimiga kiruvchi barcha moliyaviy-huquqiy institutlarga (bo'limlarga) xosdir.

Moliyaviy nazorat quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;

ikkinchidan, davlat va mahalliy korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ularning ixtiyorida yoki kundalik boshqaruvida bo'lgan pul mablag'laridan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini tekshirish;

uchinchidan, yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitob, hisobot va pul mablag'larini saqlash va sarflashning qonunchilik bilan o'rnatilgan talablariga rioya etilishini tekshirish;

to'rtinchidan, ishlab chiqarishning ichki zahiralari aniqlash;

beshinchidan, moliyaviy intizom buzilishi hollarini bartaraf etish va ogohlantirish.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, moliyaviy nazoratning mohiyati uning vazifalarida o'z ifodasini topib, ulardan biri «moliyaviy resurslarning ahvolini nazorat etishdan iboratdir. Ushbu nazorat davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalaridan foydalanishga doir operatsiyalarning to'g'ri amalga oshirilishini tekshirishni nazarda tutadi».

Moliyaviy nazoratning boshqa vazifalari qatoriga yuridik adabiyotlarda korxonalar, tashkilotlar tomonidan ularning tasarrufidagi pul mablag'lari (byudjet



mablag'lari, bank ssudalari va h.k.)dan to'g'ri foydalanilishi hamda tashkilotlar, korxonalar va muassasalar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mablag'larini saqlashga oid qoidalarga rioya etilishini tekshirish kiritilgan. Yana bir vazifa sifatida moliya intizomining buzilishini bartaraf etish va buning oldini olish, ogohlantirish ajratiladi. Ular aniqlangan hollarda tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda jazo choralari qo'llaniladi, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga etkazilgan zararni qoplash ta'minlanadi.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan moliya intizomi mustahkamlanadi. Moliya intizomi deganda, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi tushuniladi. Moliya intizomi talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat davlat manfaatlarini ta'minlaydi va aniq jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi (masalan, byudjetga to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri olinishi va h.k.ni nazorat etish)ga yordam beradi.

Moliyaviy nazoratning muvaffaqiyatli va samarali o'tkazilishi uning tashkil etilish darajasiga va nazoratning turlari, shakllari va uni o'tkazishning metodlariga bog'liq. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi sub'ektlarga ko'ra uning quyidagi turlari mavjud:

- umumdavlat moliyaviy nazorati;
- idoraviy moliyaviy nazorat;
- xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat;
- jamoatchilik moliyaviy nazorati;
- mustaqil moliyaviy nazorat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyat organlari (prezident, hukumat, Oliy majlis, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona

qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi moliyaviy nazoratning bosh maqsadi daromadlarning tushib turishi va davlat xarajatlarining sarflanishi bo'yicha davlat va jamiyatning manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Idoraviy moliyaviy nazorat vazirliklarning nazorat-taftish boshqarmalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshirilib, shu idoraga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning faoliyatini qamrab oladi. Xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan o'tkaziladi. Bu erda moliyaviy nazoratning ob'ekti sifatida korxonalar, tashkilot va muassasalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati maydonga chiqadi. Jamoatchilik moliyaviy nazorati nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Nazoratning ob'ekti uning oldiga quyilgan vazifalarga muvofiq ravishda aniqlanadi. Mustaqil moliyaviy nazorat maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan o'tkaziladi.

Moliyaviy nazorat yalpi ijtimoiy va milliy daromadni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish kabi moliyaga xos bo'lgan sifatlarni nazorat etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, moliyaning nazorat funksiyasi moliyaviy nazoratning asosiy qismi bo'lib, moliyaga bo'lgan ehtiyoj va moliya resurslari majudligi o'rtasida muvozanat bo'lishiga yordam beradi. Bunda moliyaviy nazoratning ishlashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar nazorat faoliyati barcha jabhalarining, xususan, uning chegaralari, amalga oshirish usul va shakllarining aniq tartibga solinishi, nazorat organlari huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilashdan iboratdir. Yuqorida bayon etilgan holatlarni hisobga olib, aytish mumkinki, moliyaviy nazorat huquq me'yorlari bilan tartibga solingan, davlat va nodavlat organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya resurslarini boshqarish qonuniyligi va samaradorligini belgilash, moliya intizomini ta'minlash hamda aniqlangan tartibbuzarliklarni tugatish va ogohlantirish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilishga doir faoliyatidir.

## **1.2. Korporativ tuzilmalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini moliyaviy nazorat qilish usullari**

Tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish turli usullar yordamida amalga oshirililadi. Bunda biror usulni qo'llash qo'llash bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, ularga moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlarning huquqiy ahvoli, nazorat ob'ektlari va maqsadlari, nazorat huquqiy munosabatlarining yuzaga kelish asoslari va boshqalarni kiritish mumkin. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy nazorat usullarining bir necha ko'rinishlari sanab o'tilgan. Jumladan rus iqtisodchi olimlari Gracheva E.Yu. va Sokolova E.D. ning iqtisodiy asarlarida moliyaviy nazoratning quyidagi asosiy usullari berilgan.

- kuzatish;
- tekshirish;
- tahlil qilish<sup>5</sup>.

Bir qator iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy nazoratni amalga oshirishning quyidagi 6 ta asosiy usullari sanab o'tilgan:

- tekshiruv;
- boshqaruv nazorati;
- kuzatish (monitoring);
- tadqiq etish;
- moliyaviy holat tahlili;
- taftish.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy nazoratning bunday usullarini ajratish, garchi bu munozarasiz bo'lmasa-da, shunga qaramasdan, u mavjud bo'lishga haqli. Ko'pchilik mualliflar moliyaviy nazoratning faqat tekshiruv va taftish kabi usullari mavjud deb, hisoblaydilar. Shuni qayd etish kerakki, moliyaviy nazorat to'g'risidagi qonunchilik ham mana shu yo'lda rivojlanib bormoqda.

Amaldagi qonunchilikda tekshiruvlarning belgilangan barcha turlari ta'rifi berilgan:

- tekshiruv nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini ijro etishlari ustidan bir marta o'tkaziladigan nazoratdir;

---

<sup>5</sup> Gracheva E.Yu., Sokolova E.D. Finansovoe pravo: Uchebnoe posobie - M.: Noviy yurist, 1998 y.

- qisqa muddatli tekshiruv - nazorat organlari tomonidan bir ish kuni davomida o'tkazilib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruv;

- kompleks tekshiruv - bir bir vaqtda ikki yoki bir necha nazorat organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv;

- rejadan tashqari tekshiruv - nazorat organlari tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yillik (choraklik) rejaga kiritilmagan ravishda o'tkaziladigan tekshiruv (jumladan qisqa muddatli tekshiruv);

- qarshi tekshiruv turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning turli bo'linmalarida bo'lib, yagona operatsiya bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni o'zaro solishtirishdan iborat bo'lgan tekshiruvdir.

Albatta yuqorida keltirilgan moliyaviy nazoratning barcha usullari o'ziga hos ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazoratning taftish usuli o'zining maqsadi va ob'ektlari nuqtai nazaridan, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan eng muhim nazorat usuli bo'lib hisoblanadi. Qonunchilikda taftishning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq taftish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya va soliq masalalari bo'yicha qonunchilikka rioya etishlari, soliq organlari, davlat statistika organlari va banklarga taqdim etiladigan hisob yuritish va hisobotlari to'g'riligini nazorat etish maqsadida ularning buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirishdan iboratdir.

Taftishning asosiy vazifalari tekshiruv ob'ektiga qarab farqlanadi.

Moliya organlarining ish-faoliyatini taftish qilish vaqtida quyidagilar tekshiriladi:

- byudjetlarni tuzish, ko'rib chiqish va ijro etish tartibiga rioya etilishi;

- byudjetda nazarda tutilmagan chora-tadbirlar uchun sarflangan qo'shimcha xarajatlarning qonuniyligi;

- moliya organlari iqtisodiy va nazorat ishlarining ahvoli, byudjet muassasalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni tahlil etish

bo'yicha ishlar, moliya oranlari tomonidan iqtisodiy va nazorat ishlari rejasining bajarilishi, yuqori moliya organlari topshiriq, vazifalarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi;

- moliya organi apparatini saqlash uchun xarajatlar smetasining ijrosi, moliya organida buxgalteriya hisobining ahvoli va hisobot tuzishning to'g'riligi;

- moliya organlariga moliya organlari xodimlarining xatti-harakatlari ustidan kelib tushgan shikoyatlar hamda moliya intizomi buzilganligi to'g'risida fuqarolardan tushgan ariza va xatlarni ko'rib chiqishga doir ishlarning ahvoli va boshqalar

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini taftish qilish vaqtida mablag'lar va moddiy boyliklar saqlanishi hamda to'g'ri sarflanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotining to'g'riligi, moliya intizomiga rioya etilishi tekshiriladi.

Byudjet muassasalari taftish qilinayotgan vaqtda smeta hisob-kitoblarning asoslanganligi, smetalarning ijrosi va mablag'larning maqsadli ishlatilishi, mablag'larning tejimli sarflanishi va saqlanishini ta'minlash, moliya-byudjet intizomiga rioya etilishi va buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish to'g'riligi, byudjetdan tashqari maxsus mablag'larni hosil qilish va ularni to'g'ri xarajat qilish qonuniyligi masalalari va boshqalar tekshiriladi.

Moliyaviy nazoratning shakllarini quyidagi mezonlar bo'yicha klassifikatsiya qilish qabul qilingan:

- amalga oshirilish rejlamenti;
- o'tkazilish vaqti;
- nazoratning sub'ektlari;
- nazoratning ob'ektlari.

Amalga oshirilish rejlamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning majburiy va tashabbuskorli (ichki) shakllari mavjud.

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, masalan, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, byudjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratga, korxonalar va

tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga va h.k.larga tegishli bo'lishi mumkin.

Tashabbuskorli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasa-da, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki;
- joriy (operativ);
- navbatdagi (kelgusi, so'nggi).

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo'lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning (buzilmalarning) oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larning notejamli va nosamarali sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo'lishini ko'zda tutadi. Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy tarqqiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni va nobyudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo'limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy (operativ) moliyaviy nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo'lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu erda buxgalteriya xizmatlari katta rol o'ynaydi.

Navbatdagi (kelgusi, so'nggi) moliyaviy nazorat moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajatlarni ularning bashoratlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo'ljallangan.

Nazoratning sub'ektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo'lishi mumkin:

- hokimiyat qonunchilik organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining moliyaviy nazorati;
- ijroiya hokimiyat organlari moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlarining moliyaviy nazorati;
- firmaviy-ichki moliyaviy nazorat;
- auditorlik moliyaviy nazorati va boshqalar.

Nazoratning ob'ektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari mavjud:

- byudjet moliyaviy nazorati;
- nobyudjet fondlar ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- soliqlar bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- valyuta operatsiyalari ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- kredit operatsiyalari bo'yicha moliyaviy nazorat;
- sug'urta faoliyati bo'yicha moliyaviy nazorat;
- investitsion faoliyat bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat;
- pul massasi ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat va boshqalar.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish, davlat mulkini xususiylashtirish natijasida moliyaviy mexanizm va moliyaviy tizimni tashkil etish talabini qo'yadi. Natijada ushbu sharoitda moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning xam maqsad va vazifalari, shakllari tubdan o'zgardi. Endi u faqatgina jazolovchi organ sifatida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish

uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi, byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilishni nazorat qilish, maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmokda. Iqtisodiyotning markazlashmagan tizimga o'tishi, O'zbekiston Respublikasi mulklarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish natijasida moliyaviy nazoratning roli yanada oshadi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan davlat nazoratini tashkil etish muammosiga qayta qurish jarayonida juda katta e'tibor berilmoqda va quyidagi me'yoriy xuquqiy hujjatlar qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 13 yanvar №504-XII "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasi davlat nazorati qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabr № 734-XII "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, mazkur Qonunning yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 26 maydagi 78-II son Qonuniga muvofiq tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 fevral "O'zbekiston Respublikasida davlat nazorati tizimini takomillashtirishning ayrim choralari to'g'risida"gi Farmoni, 1996 yil 8 avgustdagi "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida" kabi hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu ishlar yana davom ettirilib, 2000 yildan hozirgi davrgacha O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha ko'plab qonunchilik aktlari qabul qilindi. (O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, "Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi to'g'risida"gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 13 dekabrdagi №UP-3161 Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi Qarori va boshqalar).

O'zbekiston Respublikasi ham moliyaviy nazorat sohasida jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, ularda mavjud bo'lgan moliyaviy nazorat tizimiga o'tish borasida muhim bo'lgan ishlar amalga oshirilmokda. Jumladan, har tomonlama xolis bo'lgan, ijroiya hukumatiga emas,



balki qonun chiqaruvchi davlat organiga bo'ysunuvchi O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 iyundagi PF-3093 sonli «O'zbekiston Respublikasi hisob palatasini tashkil etish to'g'risida»gi farmoniga asosan tashkil etildi. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda uning turlarini to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan moliyaviy nazoratni 3 turga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi: byudjet-moliyaviy nazorati, moliyaviy - xo'jalik (tadbirkorlik, tijorat) nazorati, mustaqil audit. (1-javdal).

## 1-jadval

### Moliyaviy nazoratni har bir tur funksiyasi bo'yicha bo'limi<sup>4</sup>

Moliyaviy nazorat funksiyasi bo'limi		Moliyaviy nazoratga kiruvchi mustaqil auditning maxsus funksiyasi bo'limi
<b>Byudjet-moliyaviy nazorati</b>	<b>Moliyaviy-xo'jalik (tadbirkorlik, tijorat) nazorati</b>	<b>Mustaqil audit</b>
Byudjet daromad va xarajat moddalarini tekshirish	Moliyaviy xo'jalik faoliyatini va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tekshirish	Moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tasdiqlash
Mavzu bo'yicha tekshirish yoki operatsion audit		
Baholash dasturi, aniq natijalar olishga mo'ljallash, «sansen» metodi		
Taftish va tekshirish natijalarini kamomad hamda o'g'irliklar sodir bo'lganda yuqori tashkilotga taqdim etish		Auditorlik firmasining maslahat xizmatlari

Amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni quyidagicha guruhlash mumkin: Xo'jalik sub'ektlarining faoliyatini davlat nazorati O'zbekiston Respublikasini 1998 yil 24 dekabr №717-1 "Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini davlat nazorati to'g'risida"gi Qonuni asosida tartibga solinadi; Davlat nazoratini prokuror nazorati tomonidan amalga oshirilishi tegishli qonunchilik asosida tartibga solinadi; Davlat nazoratini soliq tekshiruvlari yo'li bilan amalga oshirish tegishli soliq qonunchiligi tomonidan belgilanadi. Lekin O'zbekistonda moliyaviy nazoratni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilganligi bilan umumiy qabul qilingan

<sup>4</sup> Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / – Toshkent, 2009 – 192 bet.

jahon amaliyotiga to'liq mos keltirish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish lozim.

Moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida - sub'ektlar (nazorat qiluvchilar), ob'ektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlaydi. Moliyaviy nazoratning maxsus uslublari: doimiy monitoring-kuzatuv, markazlashgan topshiriqlar bo'yicha tekshirish, xarajatlar smetasining ijrosi yuzasidan hujjatli taftish, xo'jalik faoliyati tahlili singari birmuncha xususiy uslublarga bo'linadi. Oraliq vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni muqobil tekshirish, pul mablag'lari va moddiy boyliklarni ro'yxatga olish, miqdor hisobni tiklash va boshqalardan foydalaniladi.

Moliyaviy – byudjet nazoratining sub'ektlari bo'lib, birinchi navbatda, nazorat huquqiga ega bo'lgan davlat organlari, qonunchilik va ijro organlari va boshqaruv hisoblanadi. O'zbekistonda bunga Oliy Majlisning Senat va qonunchilik palatasi, Prezident Devoni, Vazirlar Mahkamasi, moliya vazirligi, Markaziy bank va boshqalar kiradi.

### **1-bob bo'yicha xulosalar**

Moliyaviy nazorat doimiy ravishda uzluksiz davom etadigan jarayon hisoblanadi. Moliyaviy nazorat bozor munosabatlarini takomillashtirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish tizimining yetakchi zarur elementi sifatida shakllanib, rivojlanib boradi. Moliyaviy nazorat mamlakatimizda mavjud milliy boyligimizni va yaratilgan moddiy ne'matlarimizni hamda aholining manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgandir. Davlatning moliyani boshqarish borasidagi faoliyati ko'p qirrali, turli-tuman moliyaviy munosabatlarni tashkil qilishdan iborat bo'lib, ular moliya nazorati orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, moliyaviy nazoratning mohiyati uning vazifalarida o'z ifodasini topib, ulardan biri «moliyaviy resurslarning ahvolini nazorat etishdan iboratdir. Ushbu nazorat davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalaridan foydalanishga doir operatsiyalarning to'g'ri amalga oshirilishini tekshirishni nazarda tutadi».

Moliyaviy nazorat yalpi ijtimoiy va milliy daromadni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish kabi moliyaga xos bo'lgan sifatlarni nazorat etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, moliyaning nazorat funksiyasi moliyaviy nazoratning asosiy qismi bo'lib, moliyaga bo'lgan ehtiyoj va moliya resurslari majudligi o'rtasida muvozanat bo'lishiga yordam beradi. Bunda moliyaviy nazoratning ishlashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar nazorat faoliyati barcha jabhalarining, xususan, uning chegaralari, amalga oshirish usul va shakllarining aniq tartibga solinishi, nazorat organlari huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilashdan iboratdir. Yuqorida bayon etilgan holatlarni hisobga olib, aytish mumkinki, moliyaviy nazorat huquq me'yorlari bilan tartibga solingan, davlat va nodavlat organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya resurslarini boshqarish qonuniyligi va samaradorligini belgilash, moliya intizomini ta'minlash hamda aniqlangan tartibbuzarliklarni tugatish va ogohlantirish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilishga doir faoliyatidir.

## **II bob. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilishning amaldagi holati tahlili**

### **2.1 Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq organlari tomonidan nazorat qilishning amaldagi mexanizmi va uning tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari, xususan korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilishda soliq organlari eng asosiy nazorat qiluvchi organ hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda soliq nazoratini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan ko'p sonli tadbirkorlar takliflari inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-4296-sonli Farmoni bilan tekshirishlar soni yanada qisqardi, ularni tashkil etish, o'tkazish tizimi takomillashdi. Shuningdek, Farmonda Nazorat kiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika Kengashi tomonidan tasdiqlangan tekshiruvlar reja-jadvaliga tushgan korxonalaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lagan, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlaganlarini 2014 yilgi reja-jadvaldan chiqarib tashlanishi qayd etib o'tilgan.

Xususan, NQOFM respublika kengashi tomonidan tasdiklangan 2014 yilgi tekshirishlar reja-jadvaliga jami 5 310 ta tadbirkorlik sub'ekti qo'yilgan bo'lib, Farmon ijrosi bo'yicha ulardan 595 tasi (yoki 11,3%) yuqorida qayd etilgan me'zonlar asosida chiqarib tashlandi, shu bilan birga, bo'lib o'tadigan kompleks tekshirishlarning 32 tasida (yoki 0,6%) soliq va ayrim nazorat kiluvchi organlarning ishtiroki bekor kilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Savdo - sanoat palatasi to'g'risida" gi Qonuni 3-moddasiga ko'ra Palata tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishchanlik muxitini takomillashtirish, Palata a'zolarining xuquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish xamda ximoya qilish, tadbirkorlarning chet ellik sheriklar bilan aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan bo'lib,

Qonunning 13-moddasida uning a'zosi xisoblangan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarda ishtirok etish huquqi berilgan.

Ushbu vazifalar yuzasidan ishlarni sifatli tashkil etish, tekshirishlarga doir qonun xujjatlari talablarining bajarilishi, tekshirishlar shaffofligini ta'minlashning tizimli ravishda amalga oshirilishiga erishish maqsadida Savdo-sanoat palatasi xuzurida "Tadbirkorlik sub'ektlari murojaatlari va tekshirishlarni monitoring qilish markazi" (keyingi o'rinlarda - Monitoring markazi deb yuritiladi) tashkil qilingan.

## 2-jadval

### Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshiruvlari va ularning natijalari to'g'risida ma'lumot<sup>5</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2012 y.	2013 y.	2014 y.
1	Tekshiriladigan tadbirkorlik sub'ektlar soni (ta)	1680	2457	5310
<b>Tekshiruv natijasida aniqlangan kamchiliklar</b>				
2	Ishchi va xizmatchilarning ish xaqilaridan xisoblanadigan daromad solig'ini noto'g'ri hisoblash (foizda)	28	24	18
3	byudjet oldidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik (foizda)	35	38	29
4	penya qarzdorligi mavjudligi (foizda)	15	18	17
5	yagona solik to'lovini noto'g'ri xisoblash (foizda)	25	26	31
6	soliq organlariga xisobot shakllarini topshirmaslik va xokazolar (foizda)	14	12	10

Markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shaxri va viloyatlardagi xudud buyicha mas'ul xodimlarining asosiy vazifalari o'tkaziladigan tekshiruvlarda tadbirkorlik sub'ektlarining xuquq va manfaatlarini joyiga chiqqan holda himoya qilish xamda ushbu buyicha monitoring ishlarini olib borish xisoblanadi.

Jumladan, Monitoring Markazi xodimlari tomonidan 2013 yil davomida jami 2 457 ta, shundan 2 186 ta (*yoki 89%*) rejali, 271 ta (*yoki 11%*) rejadan tashkari

<sup>5</sup> [www.chamber.uz](http://www.chamber.uz) – Savdo-sanoat palatasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

tekshirishlar monitoringi o'tkazilgan bulib, o'tgan yilga nisbatan 146% (2012 yilda 1 680 ta) ni tashkil etgan. Monitoring natijalariga ko'ra, respublika bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlarning 113 tasida nazorat organlari tomonidan tekshiruv tartib-qoidalari buzilganligi anikdangan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, eng ko'p xolat nazorat organi xodimlarining "Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi"ga qayd etmaslik (61 ta), tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma bermaslik (53 ta), tekshiruv o'tkazish uchun asos bo'luvchi xujjatlarni taqdim etmaslik (29 ta), tashkilot rahbariga tilxat asosida xujjatlarni taqdim etmaslik (24 ta), tekshirish dasturi doirasidan tashqarida o'tkazganlik (13 ta) xolatlari kabilarda kuzatildi.

Markaz xodimlari ishtirokida tekshirish tartiblarining buzilishlariga doir 101 ta xolatga nisbatan choralari ko'rilgan xususan, ushbu:

- joyida bartaraf etilgan - 76 ta;
- soliq idorasiga ma'lumotnoma kiritish - 9 ta;
- prokuratura idorasiga ma'lumotnoma kiritish - 6 ta;
- SES idorasiga ma'lumotnoma kiritish - 3 ta;
- bojxona idorasiga ma'lumotnoma kiritish - 1 ta;
- yong'in xavfsizligi idorasiga ma'lumotnoma kiritish - 1 ta;
- NQOFM hududiy kengashiga ma'lumotnoma kiritish - 1 ta;
- sudga da'vo arizasi kiritish - 1 ta.

Misol uchun, Sirdaryo viloyatida faoliyat yurituvchi korxonalaridan birida (korxonasi nomi yashirilgan) Xovos temir yul bekatidagi tarmoq IIB xodimi tomonidan tekshirish o'tkazilgan bo'lib, unda tekshiruvga asos bo'luvchi xujjatlar taqdim etilmagan, "Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi" ni to'ldirmagan, tekshiruv dastur doirasida o'tkazilmagan xamda tadbirkorga dalolatnoma taqdim etilmagan. Mazkur xolatlar buyicha Palata tomonidan Xovos tuman ichki ishlar bo'limiga ma'lumotnoma yuborilishi natijasida tekshiruv to'xtatildi.

Xorazm viloyatida faoliyat yurituvchi korxonada viloyat IIB XOOB va Qo'shko'pir tuman IIB profilaktika inspektorlari tomonidan tekshiruv o'tkazilgan. Ushbu tekshiruvning O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar

faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida" gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi qonunlari xamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida" gi Farmonlari talablariga zid ravishda o'tkazilganligi Palata xamda Xorazm viloyati adliya boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan aniqlanib, holat yuzasidan Xorazm viloyat prokuraturasiga ma'lumotnoma takdim etilgan.

Surxondaryo viloyati Muzrabod, Angor, Qiziriq tumanlari hamda Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi soliq idoralari xodimlarining tekshiruv davomida "Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi" ga tegishli yozuvlarni qayd etmaslik holatlari monitoring jarayonida aniqlangan va tezkor ravishda nazorat organlari xodimlarini jalb etgan xolda joyida bartaraf etilgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuni alohida qayd etib o'tish mumkinki, monitoring o'tkazish jarayonida ko'plab tadbirkorlar qonun bilan belgilangan tartib-qoida va me'yorlar bo'yicha etarli darajada ma'lumotga ega emasliklari aniqlanmoqda.

Misol uchun, soliq organlari tomonidan utkazilgan kator tekshiruvlar yakuni dalolatnomalari Monitoring Markazi tomonidan taxdil kilinganda tadbirkorlar asosan quyidagi yo'nalishlarda xato-kamchiliklarga yo'l qo'yayotganligi ma'lum bo'ldi:

- ishchi va xizmatchilarning ish xaqilaridan xisoblanadigan daromad solig'ini noto'g'ri hisoblash;
- byudjet oldidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik;
- penya qarzdorligi mavjudligi;
- yagona solik to'lovini noto'g'ri xisoblash;
- byudjetdan tashqari fondlar (Yagona ijtimoiy to'lovi noto'g'ri xisob kitob qilingan) (25%);
- pensiya ajratmasini noto'g'ri xisoblash (5,5%);
- fuqarolarni shaxsiy jamgarib boriladigan pensiya ta'minotiga to'lovlarni

noto'g'ri xisoblash (1 %);

- soliq organlariga xisobot shakllarini topshirmaslik va xokazolar.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi hamkor tashkilotlar bilan birga shu kabi kamchiliklarning oldini olish, noqonuniy tekshiruvlarga chek qo'yish, tadbirkorlarning tekshiruvlar to'g'risidagi huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida "Tekshiruvlar: A dan Ya gacha", "Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish xaqida nimalarni bilish zarur" va "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruv o'tkazish jarayoni: Tadbirkor huquq va majburiyatlari" nomli qo'llanmalar, teshiruvlarga doir videoroliklarni bepul tarqatib kelmokda.

Shu bilan birga, ko'plab tadbirkorlar internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanmasligi sababli ularga uyali aloqa vositasidan "Tezkor ma'lumotlar bazasi" sifatida foydalanishlari uchun "UzSAT" dasturiy mahsuloti o'rnatib berilmokda.

"UzSAT" dasturiy mahsulotining afzalligi shundaki, dastur uyali telefonga o'rnatilgach, tadbirkor telefoni orqali unda qachon rejali tekshiruv tayinlanganligi, tekshiruv qaysi nazorat organlari tomonidan o'tkazilishi, tekshiruvchi kelganda qanday hatti-harakatlarni amalga oshirishi, nazoratchilardan kanday xujjatlarni talab etishi, shuningdek, "Ishonch telefonlari" orkali kaysi idoraga murojaat etishi mumkinligi tug'risida ma'lumotga ega bulishi mumkin.

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida soliq sohasidagi islohotlarni amalga oshirish va soliq munosabatlarini takomillashtirish, soliq nazoratining shakllari va ularning amal qilish holatini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Soliq nazorati davlat va jamiyat hayotida juda muhim o'rin tutadi, chunki uning vositasida davlat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy-moliyaviy resurslar jamlanadi, yalpi ichki mahsulotning zarur qismi davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun ajratiladi.




Soliq nazorati mamlakatdagi nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotiga rioya etilishiga erishishni anglatadi. Soliq nazorati huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida adolat, demokratiya kabi tamoyillarga amal qiladi. Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli va hukmron mavqeini egallashi jamiyatdagi huquqiy ong, iqtisodiy taraqqiyot, nazorat tizimlarining vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Soliq nazoratining vujudga kelishi jamiyatning demokratlashuvi jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning vositasida davlatning yangi soliqlar va yig'implar joriy etish hamda to'plashga bo'lgan ishtiyoq bilan ishlab chiqarishda qatnashayotgan fuqarolar mulkiy manfaatlari o'rtasida adolatli muvozanat saqlab turilishiga harakat qilinadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat nazoratining asosiy turi, bu soliq nazorati hisoblanadi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatda olib borilayotgan soliq nazorati iqtisodiy islohotlarga mos ravishda rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davomida soliq nazorati shakllanib, uzluksiz takomillashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi vositasida soliq sohasidagi islohotlar amalga oshiriladi. Soliq qonunchiligi davlat faoliyatining yo'nalishlaridan biri sanaluvchi davlat ichki daromadlarini shakllantirishga oid bo'lgan moliyaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tarmog'idir.

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) - tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir. Amaliyotda soliq nazorati davlat va nodavlat nazorati shakllarga bo'linadi (3-rasm).

Soliq nazoratining asosiy vazifasi-belgilangan soliq va yig'implarni o'z vaqtida, belgilangan hajmda yig'ilishini ta'minlash yo'li bilan davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya

qilish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1257-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda to'plangan va chet el tajribasini hisobga olgan holda soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish, nazorat qiluvchi organlar funksiyalaridagi bir-birini takrorlashlarni bartaraf etish, respublika fiskal-moliya organlari tuzilmasida soliq organlarining, eng avvalo, qabul qilingan soliq qonunchiligini va davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish bo'yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish masalalaridagi vakolatlarini kengaytirish va rolini oshirish maqsadida.



**3-rasm. Soliq nazorati shakllari<sup>6</sup>**

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari etib belgilandi:

1) Davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, ularning to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

<sup>6</sup> Toshmurodova B. Soliq nazorati. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2007 y.

2) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlatning maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

3) soliqlar yig'ilishini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatilayotgan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni ro'yobga chiqarish;

4) pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

5) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ularga zarur imtiyozlar va preferentsiyalar berish yuzasidan takliflar kiritish;

6) dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish;

7) respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha ishlarini muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

8) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

9) soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan munosabatda bo'lish

holatlariga qat'iy ravishda barham berish bo'yicha tizimli ish olib borish, doimiy asosda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasi oshirib borilishini ta'minlash.

Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) Soliq to'lovchilarni hisobga olish.
- 2) soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish;
- 3) byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish;
- 4) kameral nazorat;
- 5) naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;
- 6) soliq tekshiruvlari;
- 7) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash;
- 8) aktsiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;
- 9) davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish;
- 10) boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- Rejali soliq tekshiruvi;
- rejadan tashqari soliq tekshiruvi;
- muqobil tekshiruv;

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) - tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiq-langani muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir. Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o'tkaziladigan tekshiruvdir:

- 1) Yuridik shaxs tugatilayotganda;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o'tkazish zarur bo'lganda;
- 3) Davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda.

Muqobil tekshiruv - operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir.

Mamlakatimizda yuz bergan iqtisodiy o'zgarishlar, bozor munosabat-lariga asoslangan jamiyatga o'tib borilishi soliq nazoratining shakllariga ham jiddiy o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Mazkur o'zgarishlar va islohotlarning barchasi 2007 yil 23 noyabrda Qonunchilik palatasi tomoni-dan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 67-moddasida o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini mamlakatdagi nazorat tiziminining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotga rioya etilishiga erishishni amalga oshiradi.

## **2.2. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning turlari hamda ularga nisbatan javobgarlik masalalari**

Hozirgi kunda soliq qonunchiligi bevosita soliq to'lovchilar faoliyatiga tadbqiq etish jarayonida uning bir qator muammoli jihatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu holat esa ayrim soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini o'zlaricha talqin etish, soliq qonunchiligida soliqqa oid munosabatlarning umumiy talqinidan "o'z manfaat"lari yo'lida foydalanish holatlarini keltirib chiqarishi bilan bir qatorda

provardida byudjetga soliq tushumlarining etarli miqdorda tushmasliga olib kelmoqda.

Masalan, ayrim soliq to'lovchilar soliqdan qochish maqsadida haqiqiy ulgurji savdo operatsiyalari bo'lgan operatsiyalarni komissiya shartnomalari ko'rinishida rasmiylashtirmokdalar, chunki ulgurji savdo operatsiyasidan soliq to'lovchi haqiqiy tovar aylanmasidan 5 foizlik stavka bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi lozim bo'lsa, komissiya shartnomasi asosida ushbu tovar aylanmasidan emas, balki komission mukofot pulidan 33 foizlik yagona soliq to'lovi to'lashni amalga oshirmokdalar. Agarda amaliyotda ko'pgina holatlar bo'yicha komission mukofot puli tovar aylanmasiga nisbatan 2-6 foizdan iborat bo'layotgaligini e'tiborga olsak, soliq to'lovchi amalda soliq to'lashi lozim bo'lgan summaga nisbatan qariyb 4 marta kam soliq to'lashga olib kelmoqda. Bu esa soliqqa oid qonunlarni biroz takomillashtirishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib bizning fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"ning va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirishlar kiritib, komissiya shartnomasi asosida faqat chakana savdo faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etilsa va ulgurji tartibda komissiya shartnomasi asosida savdo operatsiyalarini amalga oshirishni qonun doirasida ta'qiqlab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qoidalarining tahlili unga keyingi yillarda qabul qilingan, tadbirkorlik sub'ektlari manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan normalarning hammasi kirmaganini ko'rsatadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning me'yorlari tafovut qilganda, ulardan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgani qo'llanadi, ya'ni boshqa hujjatlar bilan tafovut uchraydigan hollarning hammasida Soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi kerakligi nazarda tutilgan. Shu sababli tadbirkorlar huquqlarini yanada himoya qilish yo'lga muvofiq bo'lishi maqsadida Soliq kodeksi qoidalarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston hukumati iqtisodiyotga nisbatan soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish, milliy soliq tizimini xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha izchil siyosat yuritmoqda. Soliqqa oid huquqbuzarlik

uchun javobgarlikni liberallashtirish ushbu sohani takomillashtirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

2006 yil 10 oktyabrda qabul qilingan Qonun ushbu masalani hal qilishga yondashuvni tubdan o'zgartirdi. Mazkur Qonun bilan javobgarlikni liberallashtirishga qaratilgan ko'p qoidalar amalga kiritildi, ular ushbu Qonun qabul qilingunga qadar Soliq kodeksining loyihasida nazarda tutilgan edi. Bu hol Soliq kodeksi loyihasiga ishlov berish davomida huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib mexanizmni takomillashtirish imkonini berdi.

Yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi bilan ushbu sohada nimalar o'zgardi?

Yangi Kodeksda ushbu masalaga butun bir bob - o'n ettinchi bob bag'ishlangan. Uning 113-121-moddalari soliqqa oid huquqbuzarliklarning barcha turlari va ular uchun javobgarlik choralarini qarab chiqadi. Oldingi Soliq kodeksida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun faqat bitta modda, ya'ni 135-modda bilan javobgarlik belgilangan edi.

Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining, bundan bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan soliq to'lovchilar mustasno, davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi quyidagi miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi:

-agar faoliyat ko'pi bilan o'ttiz kun amalga oshirilgan bo'lsa, – eng kam ish haqining ellik baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning o'n foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

-agar faoliyat o'ttiz kundan ortiq amalga oshirilgan bo'lsa, – eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning ellik foizidan kam bo'lmagan miqdorda.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxsga va soliq to'lovchining mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida takroran sodir etilgan soliq hisobotini taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik – muddati

o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bir foiz miqdorida, biroq belgilangan to'lov muddatida to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdoridan tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblangan to'lovlar chegirib tashlangan summaning o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki buxgalteriya hisobini belgilangan tartibni buzgan holda yuritganlik, hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmasligiga olib kelganda – yuridik shaxs – soliq to'lovchiga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning miqdorini aniqlash imkoniyati bo'lmagan davrda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum miqdorining bir foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining ellik baravari miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jarimani to'laganlik soliq to'lovchini buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish – faoliyatning ushbu turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lmagan mahsulot etkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraqa-fakturada aks ettirganlik –mahsulot etkazib beruvchilarga hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasi miqdorida va shu summaning yigirma foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilarga nisbatan jarima solish qo'llanilmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan qayta hisob-kitob qilmaydi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, xuddi shuningdek sotib oluvchiga kvitantsiyalar yozib berish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlarni berish majburiy bo'lgani holda bunday



hujjatlarni bermasdan tovarlarni realizatsiya qilganlik va xizmatlar ko'rsatganlik – eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida sodir etilganda –eng kam ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik–eng kam ish haqining yuz baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish – to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi, 0,033 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'ladi. Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summaga teng bo'lgan qarz summasiga penya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yuridik shaxs – tadbirkorlik sub'ekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

Agar soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun moliyaviy jazoga tortilgan shaxs jazoni ijro etish tugagan kundan e'tiboran bir yil mobaynida soliq buyicha takroran qoidabuzarlik sodir etmagan bo'lsa, u jazoga tortilmagan hisoblanadi.

Angren shahar Davlat soliq inspeksiyasida o'tkazilgan tekshirishlar yakuni bo'yicha huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy va moliyaviy jazo choralari qo'llanilgan. Jumladan 2011-2013 yillarni tahlil qilsak quyidagi jadvalga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

8-jadval

**Angren shahar Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan  
tekshirishlar to'g'risida ma'lumot<sup>7</sup>**

(ming so'mda)

Yillar	Umumiy soliq to'lovchilar	Shundan soliq to'laydiganlar	Tekshirishlar soni	Aniqlangan kamchiliklar	Hisoblangan moliyaviy jarimalar	Shundan byudjetga undirilgani	Kamaytirilgan jarima summasi
<b>2011</b>	1452	1259	215	105	378413,7	295632,3	82781,4
<b>2012</b>	1437	1284	204	87	365241,5	301481,2	63760,3
<b>2013</b>	1429	1248	185	93	415803,9	399802,1	16001,8

Jadvaldan ma'lumki 2011 yilda o'tkazilgan 215 ta tekshirishdan, 105 ta holatida kamchilik aniqlanib, ularga nisbatan 378413,7 ming so'm, 2012 yilda o'tkazilgan 204 ta tekshirishdan, 87 ta holatida kamchiliklar aniqlanib ularga nisbatan 301481,2 ming so'm, 2013 yilda 185 ta tekshirish o'tkazilib, ulardan 93 tasida kamchiliklar aniqlangan va 399802,1 ming so'mlik moliyaviy jarimalar hisoblangan.

Ma'lumki moliyaviy jarimaning hisobi uchga bo'lib yuritiladi, ya'ni:

1. 10% lik jarima;
2. 100 % lik jarima;
3. Ustama

Ustama soliqlar va yig'implar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun 0,033 foiz miqdorida hisoblanadigan to'lov bo'lib, to'lov kuni

<sup>7</sup> Angren shahar DSI ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

ham shunga kiradi. Ustama undirish soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

9-jadval

**Angren shahar davlat soliq inspeksiyasi tomonidan byudjetga hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida ma'lumot<sup>8</sup>**

ming so'mda

Yillar	Jami moliyaviy jarima summasi	10 % lik moliyaviy jarima	100 % lik moliyaviy jarima	Ustama	Haqiqatda tushgan	
					Byudjetga	SORF ga
<b>2011</b>	346432,4	86472,4	239234,9	32072,1	242587,4	111647
<b>2012</b>	454177,7	70123,4	313252,3	27080	395412,5	64984,2
<b>2013</b>	487921,3	70123,4	413357,8	42536	404528,0	82411,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, soliq inspeksiyasi tomonidan soliq nazorati davomida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan hisoblangan moliyaviy jarima summalari o'z navbatida byudjetga va soliq organlarini rivojlantirish fondiga taqsimlangan. 2011 yilda 346432,4 ming so'mlik moliyaviy jarimaning 68% byudjetga qolgan 32% soliq organlarini rivojlantirish fondiga o'tkazilgan. 2013 yilda 487921,3 ming so'mlik moliyaviy jarimaning 83% byudjetga qolgan 17% soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasiga yo'naltirilgan.

**2-bob bo'yicha xulosalar**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub'ektlari, xususan korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilishda soliq organlari eng asosiy nazorat qiluvchi organ hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda soliq nazoratini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan ko'p sonli tadbirkorlar takliflari inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-

<sup>8</sup> Angren shahar DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

4296-sonli Farmoni bilan tekshirishlar soni yanada qisqardi, ularni tashkil etish, o'tkazish tizimi takomillashdi. Shuningdek, Farmonda Nazorat kiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika Kengashi tomonidan tasdiqlangan tekshiruvlar reja-jadvaliga tushgan korxonalaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lagan, ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlaganlarini 2014 yilgi reja-jadvaldan chiqarib tashlanishi qayd etib o'tilgan.

Soliq nazorati mamlakatdagi nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi va shu sababli soliq qonunlariga rioya etilishiga erishishni ta'minlash qonunchilikni mustahkamlash, huquq tartibotiga rioya etilishiga erishishni anglatadi. Soliq nazorati huquqiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida adolat, demokratiya kabi tamoyillarga amal qiladi. Soliqlar davlat daromadlari tarkibida eng salmoqli va hukmron mavqeini egallashi jamiyatdagi huquqiy ong, iqtisodiy taraqqiyot, nazorat tizimlarining vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Soliq nazoratining vujudga kelishi jamiyatning demokratlashuvi jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning vositasida davlatning yangi soliqlar va yig'imlar joriy etish hamda to'plashga bo'lgan ishtiyoq bilan ishlab chiqarishda qatnashayotgan fuqarolar mulkiy manfaatlari o'rtasida adolatli muvozanat saqlab turilishiga harakat qilinadi.

### **III bob. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish masalalari**

#### **3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq nazoratini takomillashtirish istiqbollari**

Soliq nazoratini takomillashtirish, uni to'lash intizomiga qat'iy rioya qilish, soliq qonunbuzarligiga yo'l qo'ymaslik, soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ta'minlashda muhim omillardan sanaladi. Hozirgi kunda soliqqa oid qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan korxonalardan undirilgan soliq summasining umumiy soliq summasidagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Bularning saqlanib qolayotgani, hali soliq to'lovchilarimizning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati, ularning ma'naviy saviyasi talab darajasida etarli emasligidan darak beradi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida har kuni o'nlab qonunbuzarliklar aniqlanmoqda. Ularning mavjudligi ijobiy holat hisoblanmaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa o'z navbatida soliq nazoratini takomillashuviga olib keladi.

Bu borada quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

Birinchidan, ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida ochilayotgan yuridik shaxslarni ro'yxatga oluvchi inspeksiya tomonidan har taraflama o'rganilishi va taqdim etilayotgan ma'lumotlar haqqoniylikiga, ya'ni ko'rsatilayotgan manzilgohining haqiqiylik, moddiy texnika bazasini mavjudligiga e'tibor kuchaytirilishini majburiy yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, soliq tizimi tarkibida bankdagi pul mablag'larini monitoringini olib boruvchi nazorat tizimini kuchaytirish.

Uchinchidan, shubhali bank operatsiyalarini olib boruvchi sub'ektlarning alohida hisobini yuritish va ularga nazoratdagi sub'ekt maqomini berish.

To'rtinchidan, soliq nazorati samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor daromadlarni qasddan yashirish holatlariga chek qo'yish lozim.

Beshinchidan, litsenziyalash, sertifikatlash, ro'yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va arzonlashtirishdir.

Oltinchidan, soliq tushumlarini oshirishda soliq boshqaruvining nazorat funksiyasi samaradorligini oshirishda soliq madaniyatini oshirish, soliq mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatga olish tartibini ixcham va tez shakllarini joriy etish lozim.

Ettinchidan, 2007 yil 23 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va uning sharhi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish, kengroq matbuotdan foydalanishni, soliq to'lovchilar orasida soliq nazorati haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish lozim.

Sakkizinchidan, soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlarda nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo'lim tomonidan soliqqa oid qonunlar, Farmonlar va qarorlar talablarini bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

To'qqizinchidan, soliq qonunchiligini barqarorlashtirish soliq nazoratini huquqiy tartibga solishda soliq to'lovchilar uchun soliq yukini optimal taqsimotini ta'minlash va soliq sub'ektlarining soliq madaniyatini yuksaltirish lozim.

O'ninchidan, soliqlarni hisoblash va byudjetga o'tkazish jarayonida soliq nazoratini kuchaytirish va soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy jazo choralari qonunchilik me'yorlarini soliq to'lovchiga tushunarli holda to'liq belgilash lozim.

Korxonalarda biznesning taqdiri, uning saqlanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan soliq va to'lovlarning qanday va qancha miqdorda to'lanishiga bog'liq bo'lib qolayotganligi hech kimga sir emas. Respublikamizdagi soliq va boshqa soliqqa tortish tizimiga ta'sir etuvchi boshqa qonunchilikka tinimsiz o'zgartirishlarning kiritilishi va soliq yukining yuqoriligi sharoitida korxonalarda soliq menejmentini samarali tashkil etish nihoyatda muhim va shu bilan bir paytda

juda murakkabdir. Chunki soliq qonunchiligining o'zgarishi rejalashtirilgan biznes rejalarining buzilishiga olib keladi. Soliq menejmenti korxonada moliyaviy resurslar va moliyaviy oqimlarni boshqarishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Soliq menejmenti - soliq to'lovlarini optimallashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida ularni samarali boshqarishdir va u har qanday korxonada menejmentining ajralmas qismi hisoblanadi.

Respublikamizda korxonalarda soliq menejmentini rivojlantirish hali o'zining yaxshi rivojini topmagan. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar soliq menejmentini rivojlantirish davr talabidir. Shu tufayli korxonada soliq munosabatlarini boshqarish nafaqat soliq to'lovchilarning, balki auditorlik va konsalting firmalari faoliyatining asosiy ish ob'ektiga aylanib bormoqda, chunki soliq menejmenti tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Aks holda korxonalar, albatta, inqirozga uchraydilar. Buni mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishining dastlabki bosqichlarida (ya'ni soliq menejmenti tushunchasining umuman mavjud bo'lmagan paytlarida) ko'plab kuzatishimiz mumkin edi. Hozirgi paytda ham bu holat yo'q emas. Respublikamizdagi iqtisodiy shart-sharoitlarda korxonalarda soliq menejmentini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkillashtirish imkoniyatlari va chegaralari qanday? Barqaror soliq qonunchiligi asos yaratadigan korxonalar soliq menejmentini korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini rivojlanishini ta'minlaydigan va ayni paytda byudjet daromadlariga minimal ta'sir ko'rsatadigan darajada tashkil etish mumkinmi? Ushbu bo'limda shu kabi savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Adolatli soliq yuki va mukammal soliq tizimi sharoitida korxonalarda soliq menejmentidan kutilgan natija yuqoridagi holatni ta'minlaydi. Ammo korxonada soliq menejmentining (binobarin har bir tadbirkor) pirovard maqsadi, korxonalarining soliq to'lashni kamaytirishga va maksimal foyda ko'rishga qaratilganini e'tiborga oladigan bo'lsak, soliq va to'lovlar yuki darajasi korxonalar foyda olishini nihoyatda chegaralaydigan (yoki ta'minlamaydigan) sharoitda korxonalar yo inqirozga uchraydi yoki noqonuniy yo'llarga o'tishga majbur bo'ladi. Coliq sohasida qarorlar qabul qilinayotganda, korxonalarda soliq menejmentining

rivojlanganligini e'tiborga olmaslik, byudjet daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yana shuni ta'kidlab qat'iyat qo'yish lozimki, soliq menejmentini samarali tashkil qilish ko'proq xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo'shma korxonalarda rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Korxonalarda soliq menejmentini qisqacha xo'jalik sub'ektlarining soliqlar va davlatning maqsadli fondlariga to'lovlarni korxonada moliyaviy xo'jalik faoliyatiga minimal darajada ta'sir ko'rsatadigan darajada boshqarishni tushunish mumkin.

Korxonalarda soliq menejmentini tashkil qilishning ikki xil yo'li, korxonada soliqni rejalashtirish va korxonada soliq nazoratini olib borish yo'nalishda yuritiladi. Korxonada soliqni rejalashtirish avvalo soliq to'lovlarini optimallashtirishni anglatadi. Korxonada soliqlarni optimallashtirish bu - soliq to'lash xarajatlarini kamaytirish orqali moliyaviy natijalarga ega bo'lish, yoki soliq to'lovlarini oshirmagan holda ko'proq tushumga ega bo'lishdir. Soliq to'lovchi byudjetga to'lovlarni qisqartirish binobarin, mulkni saqlab qolish uchun yo'l qo'yiladigan barcha usullardan, shu jumladan qonun hujjatlari kamchiliklardan foydalanish huquqiga egadir. Soliq qonunchiligidagi barcha shubhali joylar soliq to'lovchining foydasiga sharhlanishi kerak. Bu narsa xususiy mulk daxlsizligi qoidasining real ifodasi hisoblanadi va davlat o'zboshimchaligiga qarshi kafolat bo'ladi. Soliq to'lovchining soliqning qonuniy tarzda chap berish huquqining shakl-shubhasizligi ko'pchilik mamlakatlarning sud amaliyoti bilan ham tasdiqlanadi. Soliqlarni rejalashtirish asosida qonun tomonidan belgilangan barcha imtiyozlardan iloji boricha to'liq va to'g'ri foydalanish, shuningdek, soliq organlarining pozitsiyasini baholash va davlatning soliq, byudjet va investitsiya siyosati asosiy yo'nalishlarini hisobga olish turadi.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliqlarga chap berish va soliqlarni rejalashtirishni chegaralash kerak bo'ladi. Mazkur tushunchalar jahon amaliyotida soliq huquqi shakllanishi bilan barobar paydo bo'lgan. Soliqlarga chap berish shunday vaziyatki, bunda korxonada yoki jismoniy shaxs uning faoliyati qonunga ko'ra soliq solishdan yoki soliq solinmaydigan daromadlar olishi yoxud soliq



organlarida ro'yxatga olinmaganligi tufayli soliq to'lovchi hisoblanmaydi. Soliqlarni rejalashtirish, shuningdek, qonun bilan yo'l qo'yiladigan barcha soliq imtiyozlaridan qonuniy foydalanish yoki to'lovchining soliq majburiyatlarini kamaytirishning maxsus usullarini qo'llanish, agar ular qonuniy usullar bilan amalga oshirilsa, odatda, ularga soliq organlarining qanday munosabatda bo'lishidan qat'i nazar, to'lovchiga nisbatan jarima choralarini qo'llash uchun sabab bo'la olmaydi. Soliqlarni rejalashtirishning shak-shubhasiz afzalligi shundaki, soliq majburiyatlarini imkoni boricha kamaytirish maqsadlariga qonunlarni buzmasdan erishiladi. Soliqlardan ochiq-oydin qochish uchun ham, soliq to'lashdan bo'yin tovlash uchun ham foydalaniladigan soliq qonunchiligidagi kamchiliklar qonunni ishlab chiqish va qabul qilish chog'ida yuridik texnikaning mukammal emasligi bilan izohlanadi. Bunday muammolar qonun matniga zarur tuzatishlar kiritish yoki noaniq yohud ikki xil ma'no beradigan ta'riflarni rasman sharhlash bilan bartaraf etiladi. Soliqlarni rejalashtirish ijodiy jarayon bo'lib, u mamlakatdagi soliq qonunchiligining holatiga, uning soliq muhitiga, byudjet, investitsiya va soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va huquqiy tartibot holatiga, soliq organlari ixtiyorida bo'lgan va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashlarning oldini olishga yo'naltirilgan qonunchilik, ma'muriy va sud choralariga, soliq to'lovchilar huquqiy madaniyati holatiga, shuningdek, soliq maslahatchilarining omilkorligiga bog'liqdir.

Ko'pchilik davlatlarning huquqni qo'llash amaliyotida soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek, soliqlarni rejalashtirishni qo'llash sohasini jiddiy ravishda chegaralash imkonini beradigan maxsus usullar shakllangan. Korxonada soliqni rejalashtirishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- 1) Soliqlarni eng minimal darajada to'lashga harakat qilish (soliq qonunchiligi doirasida);

- 2) Soliq to'lashning optimal holatini tanlash. Masalan, soddalashtirilgan tizimda yoki aksincha umumiy tartibda soliq to'lashni tanlash; soliq imtiyozlaridan foydalanishdan voz kechish (ayrim hollarda bu korxonada uchun qulay bo'lmasligi mumkin); soliqqa tortish tizimining qulayligiga qarab tadbirkorlik bilan

shug'ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tish yoki yuridik shaxs sifatida faoliyat qilish qulay bo'lishi mumkin;

3) Soliq to'lovlari muddatlarini o'z manfaatidan kelib chiqib taqsimlash. Bunda soliqlar qonuniy belgilangan muddatlarda to'lanmay, jarima va penyalar to'lash korxonasi uchun afzalroq deb qaralishi mumkin.

Soliqni rejalashtirish ishlari yil davomida emas, moliya yili boshlangunga qadar amalga oshirilishi samaraliroq bo'ladi. Soliqni rejalashtirish xo'jalik faoliyatini ishlab chiqarishda rejalashtirishning bir qismi bo'lishi lozim. Soliqni rejalashtirishni tashkil qilishda quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. Buxgalteriya hisobi bilan birgalikda (Rossiyadagi kabi) alohida soliq hisobini yuritishni tashkil qilish

2. Korxonada shakllanadigan xarajatlar tarkibini, foydaning shakllanishini tahlil qilib chiqish. Bu holat qonun doirasida foyda solig'ini va QQSni kamaytirishi mumkin. Ammo bu sof foydani ham kamaytiradi.

Bizning soliq qonunchiligimizga ko'ra, xarajatlar ham ko'pgina soliqlarning ob'ektiga kirishini e'tiborga olish zarur (ekologiya solig'i, yo'l fondiga to'lov, nafaqa fondiga to'lov), xarajatlarni ko'paytirish orqali soliqni ko'proq to'lanadimi yoki kamaytirish orqali degan savolga javob berish uchun xar bir korxonasi tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirishi kerak va to'g'ri variantni tanlash mumkin.

3. Soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish lozim. Soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun moliya yili boshlangunga qadar soliq imtiyozidan foydalanish shartlariga moslashish tadbirlari ko'riladi.

4. Soliq to'lovlarining optimal holatini tanlashda barcha soliqlarning va boshqa soliq to'lovchilarning soliq to'lash bo'yicha holatini birgalikda olib qarash kerak (chizmada). Chunki bir soliqni pasaytirish imkoniyatidan foydalanish boshqa soliqdan ko'proq to'lanishiga yoki boshqa soliq to'lovchi tomonidan ko'proq to'lanishiga olib kelishi mumkin.

5. Soliqni rejalashtirishda soliq organi bilan munosabatlarni shunday tashkil qilish kerakki, soliq qonunchiligini buzganlik uchun penya va jarimalarga ketgan xarajatlarni kamaytirilishi lozim. Soliqni to'lash muddati kelgan bo'lsa, uni to'lash

uchun kredit olish kerakmi yoki soliq penyasini to'lash afzalmi degan savolga javobni qulay hal qilish lozim.

6. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik faqat Soliq kodeksi bilan emas balki boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilanganligini ham e'tiborga olish lozim.

7. Soliq to'lovlari bo'yicha korxonada taqvim yuritilishi maqsadga muvofiq. U korxonaning o'z to'lov kalendariga mos kelishi va to'lov muddatlariga tegishli mablag'lar mavjud bo'lishi choralari ko'rib boriladi. Soliqni rejalashtirish sifatini baholash mezoni bo'lib, uning qo'llanilishidan bo'lgan iqtisodiy natija hisoblanadi.

Korxonada soliqni rejalashtirishni samarali amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Nafaqat joriy yil balki rejalashtirilayotgan davr uchun ham soliq qonunchiligini bilish;

2. Soliq davri uchun aniq biznes rejaning mavjudligi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar aniq bo'lmasdan turib, soliqni to'g'ri rejalashtirish mumkin emas; Amaliyotda shunday hollar uchraydiki, korxonalar (ko'proq xususiy firmalar) ro'yxatdan qtiladi, bir muncha xarajatlar qilinadi va faoliyatini boshlaydi. Endi soliqqa tortish holati bilan yaxshilab tanishishi yoki soliqni dastlabki to'lash payti kelishi bilan korxonalar faoliyat yurita olmasligiga, bankrotga uchrashiga ko'zi etib faoliyatini tixtatadi. Respublikamizda ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritmayotgan korxonalar soni ko'p. Shu tufayli soliqni rejalashtirishda faoliyat yuritishdan keladigan soliq oqibatlarini to'g'ri aniqlanishi mablag' va vaqtning tejalishiga olib keladi.

3. Kadrlar masalasini to'g'ri hal etish. Soliqni samarali rejalashtirish nafaqat soliq qonunchiligini yaxshi bilishni, balki ko'plab iqtisodiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishni talab etadi.

4. Soliq to'lovchilarning o'z qonuniy huquqlarini talab qila olishlari ham korxonada soliq to'lovlarini optimallashtirish uchun muhimdir.

Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlardan samarali foydalanish maqsadida, korxonalar faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish

alohida dasturlar loyihalariga kiritilgan korxonalar va soliq to'lovchilar ayrim guruhlariga (investitsiyaviy dasturlar, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qo'shma korxonalar) nisbatan olib boriladi. Bunday dasturlar loyihalariga kirishga moslashish korxonada soliqlarni pasaytirishning bir yo'nalishi hisoblanadi.

Soliqqa tortishning yuqoriligi va soliq tushumlari rejasining bajarilishining talab qilinishi ayrim hollarda soliq inspektorlari tomonidan qo'shimcha tushumlarni undirishni zarur qilib qo'yish hollarining ham amaliyotda mavjudligini e'tiborga olish zarur. Soliq organlari tomonidan nazorat o'tkazish natijalariga ko'ra, korxonalar faoliyatini tubdan o'zgartirib yuboradigan jarimalarni (masalan korxonalar faoliyatini to'xtatish, tugatish, litsenziyalarni bekor qilish, tovarlarni oborotdan chiqarish, bankdagi hisob raqamini hibsga olish, yirik jarimalarni qo'yish) qo'llash vakolatini sud organlariga berish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu holat bir tomondan noqonuniy harakatlarning oldini oladi, ikkinchi tomondan, moliyaviy mablag'lar, resurslarning tadbirkorlar ixtiyorida byudjetga noto'g'ri o'tkazilishining oldini oladi. Yuqori jarimalar korxonalar faoliyatining to'xtashiga va byudjet daromadi manbaining tugashiga olib keladi. Buning natijasida byudjet ko'proq zarar ko'radi.

Joylarga borib soliq nazoratini o'tkazishdagi eng katta muammo bu korxonalar tomonidan ikki xil buxgalteriya hisobining yuritilishidir. Birinchisi o'zi uchun, ikkinchisi soliq organlari uchun. Yashirilgan soliq ob'ektlarini topish soliq organlari xodimlaridan nihoyatda katta bilim va tajriba talab qilinadi. Soliq nazorati sohasidagi muammolardan biri soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq. «Qayd qilingan manzil» tushunchasining tartibga olinmaganligi, hamda noqonuniy faoliyat boshlagani uchun jazoning kuchli emasligi turli soliqdan qochish uchun turli qonunbuzarliklarni amalga oshiruvchi «bir kunlik» firmalarning tashkil bo'lishiga olib kelmoqda. Ular haqiqiy bo'lmagan hujjatlardan va noaniq manzildan foydalanadilar. Ular turli noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirib, soliqlarni to'lashdan ko'ra korxonaning «tashlab» ketishni ma'qul ko'radilar. Ularni topish soliq organi uchun katta mehnat va xarajatlarni talab

qiladi. Shuningdek, ularni sud orqali yopish va qarzlarni undirish ham vaqt va xarajatni talab qiladi. Shu tufayli yangi korxonani ro'yxatdan o'tkazishda dastlabki nazoratni diqqat bilan amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va uni qonuniylashtirish maqsadga muvofiq.

Nazorat organlari ish faoliyatlari reglamentining umumiy shaklini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Unda tekshiruvchi inspektorlar va tekshirilayotgan xo'jalik sub'ektlarining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, unda nazorat faoliyatini amalga oshirish vakolatlarini va nazoratning soddalashtirilgan tartibi aks etishi kerak. Amalda xo'jalik sub'ektlarini soliq organlari tomonidan tekshirishni o'tkazishning aniq tartib qoidalari ishlab chiqilmagan. Natijada tekshiruvchi organlar xodimlarining o'z vazifalarini siiiiste'mol qilish, soliq to'lovchilar huquqlarini buzish hollari yuz beradi. Masalan, qanday maqsadli tekshirishlarda qanday hujjatlarni olish mumkin, qaysilarini olish shart emas, tekshirishning maqsadiga qarab qancha vaqt davom etishi lozim, boshqa nazorat organlari tekshirish natijalaridan foydalanish tartibi kabi jihatlari aniq qonuniylashtirilmagan. Soliq organlarining noqonuniy xarakteriga doir javobgarlik mexanizmi ishlab chiqilishi kerak.

### **3.2. Korporativ tuzilmalar moliyaviy nazorat tizimi samaradorligini oshirish yo'llari**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri soliq tizimini shakllantirish asosida soliqqa tortish mexanizmining samaradroligini ta'minlashdan iboratdir. Soliqqa tortish tizimini iqtisodiy islohotlarning borishi va uning mazmuniga bog'liq holda takomillashtirib borish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Soliqqa tortish tizimining muhim bo'g'inlaridan birini soliq qonunchiligi tashkil etadi. Soliq qonunchiligining asosiy tamoyillari sifatida uning umumiylik xarakteri soliq munosabatlarining tartibga solinishida katta ahamiyat kasb etsada, biroq, hozirgi kunda soliq qonunchiligi bevosita soliq to'lovchilar faoliyatiga tadbiiq etish jarayonida uning bir qator muammoli jihatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu holat esa

ayrim soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini o'zlaricha talqin etish, soliq qonunchiligida soliqqa oid munosabatlarning umumiy talqinidan "o'z manfaat"lari yo'lida foydalanish holatlarini keltirib chiqarishi bilan bir qatorda provardida byudjetga soliq tushumlarining etarli miqdorda tushmasliga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator soliq to'lovchilar soliqdan qochish maqsadida savdo operatsiyalarni komissiya shartnomalari asosida rasmiylashtirishlari kuzatilmoqda. Vaholanki, ushbu operatsiyalar haqiqiy ulgurji savdo operatsiyalaridir. Ma'lumki, ulgurji savdo operatsiyasidan soliq to'lovchi haqiqiy tovar aylanmasidan 5 foizlik stavka bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi lozim bo'lsa, komissiya shartnomasi asosida ushbu tovar aylanmasidan komission mukofot pulidan 33 foizlik yagona soliq to'lovi to'lanishi zarur. Agarda amaliyotda ko'pgina holatlar bo'yicha komission mukofot puli tovar aylanmasiga nisbatan 2-6 foizdan iborat bo'layotgaligini e'tiborga olsak, soliq to'lovchi amalda soliq to'lashi lozim bo'lgan summaga nisbatan qariyb 4 marta kam soliq to'lashga olib kelmoqda. Bu esa soliqqa oid qonunlarni biroz takomillashtirishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib bizning fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolik kodeksi"ning va O'zbekiston Respublikasi Soliq qodeksining tegishli moddalariga o'zgartirishlar kiritib, komissiya shartnomasi asosida faqat chakana savdo faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etilsa va ulgurji tartibda komissiya shartnomasi asosida savdo operatsiyalarini amalga oshirishni qonun doirasida ta'qiqlab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi, natijada esa, soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligining umumiylik printsiplaridan soliqdan qochish maqsadida foydalanish holatlarining oldi olinishi bilan bir qatorda byudjetga soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi.

Bu boradagi yana bir muammoli vaziyatlaridan biri bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan kirim qilinmagan tovarlarni saqlab, ularning tegishli hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovar aylanmasini sodir etishi bilan bog'liqdir. Bunday jarayonlar ustidan operativ tarzda soliq nazoratini o'rnatishning imkoni cheklangandir. Bundan tashqari amaldagi soliq qonunchiligimiz mazmuni bunday holatlarning kelib chiqishiga birmuncha imkoniyat yaratilishiga zamin

yaratilmoqda. Bu erda gap O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 114-moddasi haqida ketmoqda. Ushbu moddaga muvofiq "Yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish maqsadida hisobga olinmaydi hamda mazkur soliqqa oid huquqbuzarlik yuzasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilinmaydi". Fikrimizcha, soliq kodeksiga o'zgartirish kiritib "Yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni qayta hisoblashga asos bo'la oladi va ushbu holatni amalga oshirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan tushum yashirilishi natijasida hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar miqdorida moliyaviy jarima solinadi va ular qo'shimcha hisoblangan soliq boshqa majburiy to'lovlarni byudjetga to'lashdan ozod etilmaydi",-deb qayta yozish lozim.

2008 yil 1 yanvaridan kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq organlarining ham, soliq to'lovchilarning ham ishini soddalashtirdi. Birinchidan, u bevosita amal qiluvchi hujjat hisoblanadi, ya'ni soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun endi ko'pdan-ko'p yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlarini o'rganish kerak emas. Ikkinchidan, soliq tizimi ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish qoidalari va to'lash tartibini birxillashtirish tufayli soddalashtirildi. Soliq solish tizimining yuqori darajada barqarorligi va soliq nazorati shakllarini aniq belgilash ham soliq ma'muriyatchiligini yaxshilashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq tekshiruvlarni o'tkazish mexanizmini batafsil tavsiflaydi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qoidalarining tahlili unga keyingi yillarda qabul qilingan, tadbirkorlik sub'ektlari manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan normalarning hammasi kirmaganini ko'rsatadi. Afsuski, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish taomilini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qoidalari ayrim xollarda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ayrim normalariga muvofiq kelmaydi. Tekshiruvni tayinlash va o'tkazish paytida soliq to'lovchilarning manfaatlariga zarar keltirgan holda tekshiruvchi mansabdor shaxslarning vakolatlari kuchaytirilgan. Fikrimizcha, Soliq kodeksini

takomillashtirish maksadida, ilgari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan berilgan preferentsiyalarni kiritmaslik va uning normalarini tekshiruvlar tizimini tartibga soluvchi hujjatlarning normalariga muvofiqlashtirmaslik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-3619-son va 2005 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-3665-son Farmonlarida ta'kidlangan, tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini yanada himoya qilish vazifalarini amalga oshirishni murakkablashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 86-moddasida berilgan rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish lozim bo'lgan shartlarning biri sifatida "davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda" o'tkazilishi to'g'risida ta'kidlangan.. Biroq Kodeks ayni qanday "qo'shimcha ma'lumotlar" rejadan tashqari soliq tekshiruvlarini boshlash uchun etarli asos bo'la olishini aniqlashtirmaydi. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilishni tartibga soluvchi boshqa hujjatlarda keltirilgan rejadan tashqari tekshiruvlarni tayinlash uchun qanday axborot qo'shimcha ma'lumotlar bo'la olishini ko'rsatib o'tilgan xollarni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ham kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Shuning uchun Soliq kodeksi 86-moddasining uchinchi qismini quyidagi qoida bilan to'ldirishni taklif qilamiz: "Aniq dalillangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan huquqbuzarlik dalillarini ko'rsatgan holda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolardan olingan axborot qo'shimcha ma'lumotlar bo'lib xizmat qilishi mumkin". Soliq tekshiruvlarini o'tkazishning chegaralangan muddati belgilanmaganligi Soliq kodeksidagi yana bir kamchilikdir. Uning 89-moddasida aytilishicha, soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin.



Biroq tekshiruvning ayni qanday muddatga uzaytirilishi mumkinligi ko'rsatilmagan. Bu muddat boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilangan, ular bu muddatni 30 kun bilan chegaralaganlar.

Yuzaga kelgan vaziyat shunisi bilan xatarliki, soliq organlarining xodimlari Soliq kodeksining boshqa qonun hujjatlaridan ustuvorligini ro'kach qilib, tekshiruvlar o'tkazish muddatini asossiz ravishda cho'zish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mansabdor shaxslarga ortiqcha vakolatlar berish esa korrupsiyani tug'diruvchi omildir. Joylarda ayrim tekshiruvchilar tomonidan ehtimol bo'lgan suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslik va Soliq kodeksi normalarini tekshiruvlar to'grisidagi amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish, shu jumladan uni ehtimol bo'lgan uzaytirishning ham eng yuqori muddatini chegaralashni zarur deb hisoblaymiz.

Shuni ta'kidlash zarurki, Soliq kodeksida nafaqat boshqa qonun hujjatlarining normalari, balki Soliq kodeksining o'zining qoidalari o'rtasida ham tafovutlar mavjud. Masalan, kodeksning 92-moddasining birinchi qismida aytilishicha, naqd pul tushumlariga taalluqli masalalar yuzasidan qisqa muddatli tekshiruv o'tkazilayotganida soliq tekshiruvi tugallanganiga qadar soliq to'lovchini soliq tekshiruvining maqsadi bilan tanishtirishi va unga tegishli hujjatlarni topshirishi kerak. O'sha moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilishicha, soliq to'lovchiga tegishli hujjatlarni topshirish payti soliq tekshiruvini o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi. Fikrimizcha, tekshiruvchi soliq to'lovchini tekshiruv boshlanguniga qadar (u tugallanadigan paytgacha emas) uni o'tkazish maqsadi bilan tanishtirishi va tegishli hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Ma'lumki, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning me'yorlari tafovut qilganda, ulardan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgani qo'llanadi. Buning ma'nosi shuki, yuqorida sanalgan boshqa hujjatlar bilan tafovut uchraydigan hollarning hammasida Soliq Kodeksi qo'llanishi kerak, unda, soliq solish masalalariga daxldor bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar Soliq Kodeksiga muvofiq bo'lishi kerakligi ham nazarda tutilgan. Ular muvofiq bo'lmagan taqdirda Soliq Kodeksi qoidalari qo'llaniladi. Shu sababli tadbirkorlar huquqlarini yanada himoya qilish

yo'liga muvofiq bo'lishi maqsadida Soliq Kodeksi qoidalarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu Kodeksda e'lon qilingan soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi printsipini amalga oshirish maqsadida ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Soliq organlarining xo'jalik sub'ektlarini nazorat qilishda shuni e'tirof etish mumkinki, nazoratning ko'pligi amaliyotda aniqlangan soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil va erkin ishlashga sharoit yaratib berishni ko'zlaydigan imkoniyatlar bugungi kun tartibidagi asosiy masala va muammo hamdir.

Bundan tashqari davlat tomonidan nazoratni amalga oshiruvchi huquqiy institutlarning o'zaro hamkorlik masalalari ham bugungi kunda juda takomillashgan tarzda tashkil etilgan deb bo'lmaydi. Bularga Davlat soliq xizmati, bojxona xizmati, Prokuratura, Ichki ishlar xizmati va boshqa nazorat organlarini o'zaro aloqalarini aytib o'tish mumkin. O'zaro hamkorlik o'z navbatida nazoratni amalga oshirishdagi bir qancha qulaylik va keng imkoniyatlarni ochib beradi

Nazorat samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Nomukammal va nobarqaror soliq tizimi sharoitida soliqqa oid qonunbuzarliklarga qarshi kurashish juda murakkab hisoblanadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunday sharoitda soliq tizimiga kiritilayotgan o'zgarishlarni va tadbirkorlik faoliyati natijalarni kuzatishning texnologik xaritasini tuzish maqsadga muvofiq.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, soliqqa oid qonunbuzarliklarning yuzaga kelishi ko'p hollarda kadrlarning noto'g'ri faoliyati bilan bog'liq. Ko'pgina davlatlar bu yuqori foizni tashkil qiladi (masalan Rossiyada 75%). Respublikamizda bu ko'rsatkich pastroq. Buning sababi soliq xatolarining yuz berishi korxonalar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan ham bog'liq (o'zaro hisob-kitoblar mexanizmining buzilishi, soliq qonunchiligidagi murakkabliklar, soliq yukining yuqoriligi natijasida korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini saqlash istagi va boshqalar).

Amaliyotda soliqqa oid qonunbuzarliklarni yuzaga kelish sabablariga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: birlamchi hujjatlarni (buyruqlar, korxonalar komissiyasi dalolatnomalari, shartnomalar, hisobvaraqlar-fakturalar va hk.) mavjud emasligi yoki soliqqa tortish nuqtai nazaridan noto'g'ri rasmiylashtirilganligi; soliq qonunchiligining noto'g'ri talqin qilinishi bilan yuzaga keladigan xatoliklar;

soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'zlashtirmaslik natijasida yuz beradigan xatoliklar; soliqni hisoblashdagi arifmetik xatoliklar; soliq inspeksiyasiga hisobotlarni o'z vaqtida topshirmaslik; soliqni to'lash (o'tkazish) muddatlarini cho'zish.

Soliqqa oid qonunbuzarliklar oqibatida yuzaga keladigan yuqori moliyaviy jarimalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Bu holatlar har bir korxonada ichki soliq nazorat tizimini o'rnatishni taqozo qiladi. Bu tizimning vazifasi soliq majburiyatlarining bajarilishida soliqqa oid qonunbuzarliklar yuzaga kelishining iloji boricha oldini olishga qaratiladi. Bu tizimning tashkiliy tuzilishi korxonalar masshtabiga va soliq to'lovlari doirasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bu ishlarni amalga oshirish uchun korxonalarda soliq menejeri sifatini tashkil qilish lozim.

To'g'ri tashkil etilgan soliq nazorati soliqqa oid qonunbuzarliklarni salmoqli darajada kamaytiradi va bu bilan departament hamda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshirishlari paytida qo'yiladigan moliyaviy jarimalar sonini kamaytiradi. Bunda moddiy manfaatdorlikdan tashqari ichki soliq nazorati korxonalar tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror asos, yaxshi muhit yaratadi hamda tashqi soliq tekshirishlaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolardan xalos qiladi.

Soliq nazorati soliq tizimining muhim ajralmas qismidir. Soliq nazorati soliq qonunchiligining soliq to'lovchilar tomonidan, xamda soliqlarni undirish jarayonida soliq xizmati organlarining soliq qonunchiligida belgilangan talablarga rioya qilinishini nazorat qilinishini nazarda tutadi.

Bankdagi hisobvaraqlarida o'zining pul mablag'lariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar o'sha pul mablag'lari doirasida belgilangan tartibda birinchi talab bo'yicha pul mablag'larini olish qat'iy nazoratining tashkil etish lozim;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi PF-4296-son Farmoni bilan 2014 yilning 1 aprelegacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq sohasida tekshirish taqiqlangan. Mazkur muddatni yana 5 yilga uzaytirish lozim.

Bank muassasalari bilan tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni shakllantiruvchi chora - tadbirlarni ishlab chiqish; ma'lum tabaqalashtirilgan hajmda xarid qilingan mahsulotlar uchun nazorat kassa mashina chekini yoki kvitantsiyani olmaganlik uchun jarima qo'llash tizimini joriy etish; savdo va xizmat ko'rsatish sohaslarini nazorat qilishni tartibga soluvchi soliq qonunchiligini barqarorligini ta'minlanishi, ya'ni huquqiy va normativ hujjatlarni kamida 5 yilgacha o'zgarmaydigan qilib ishlab chiqarish. Bu borada eng avvalo huquqiy hujjatlarni bir tizimda tartibga solish zarurdir.

Aholiga transport xizmat ko'rsatish sohasida naqd pul tushumlarini kassa intizomini o'z o'rnida kunlik tushumini bankka topshirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqmoq darkor.

Xulosa qilib aytganda, soliq nazorati mexanizmini takomillashtirish tadbirkorlik, biznes va xususiy sektor vakillariga nisbatan munosabatimizni tubdan o'zgartirishimizning asosiy omillaridan biridir.

### **3-bob bo'yicha xulosalar**

Soliq nazoratini takomillashtirish, uni to'lash intizomiga qat'iy rioya qilish, soliq qonunbuzarligiga yo'l qo'ymaslik, soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ta'minlashda muhim omillardan sanaladi. Hozirgi kunda soliqqa oid qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan korxonalardan undirilgan soliq summasining umumiy soliq summasidagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Bularning saqlanib

qolayotgani, hali soliq to'lovchilarimizning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyati, ularning ma'naviy saviyasi talab darajasida etarli emasligidan darak beradi. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida har kuni o'nlab qonunbuzarliklar aniqlanmoqda. Ularning mavjudligi ijobiy holat hisoblanmaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa o'z navbatida soliq nazoratini takomillashuviga olib keladi.

Bu borada quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

Birinchidan, ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida ochilayotgan yuridik shaxslarni ro'yxatga oluvchi inspeksiya tomonidan har taraflama o'rganilishi va taqdim etilayotgan ma'lumotlar haqqoniyligiga, ya'ni ko'rsatilayotgan manzilgohining haqiqiyliги, moddiy texnika bazasini mavjudligiga e'tibor kuchaytirilishini majburiy yo'lga qo'yish.

Ikkinchidan, soliq tizimi tarkibida bankdagi pul mablag'larini monitoringini olib boruvchi nazorat tizimini kuchaytirish.

Uchinchidan, shubhali bank operatsiyalarini olib boruvchi sub'ektlarning alohida hisobini yuritish va ularga nazoratdagi sub'ekt maqomini berish.

To'rtinchidan, soliq nazorati samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor daromadlarni qasddan yashirish holatlariga chek qo'yish lozim.

Beshinchidan, litsenziyalash, sertifikatlash, ro'yxatga olish jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va arzonlashtirishdir.

Oltinchidan, soliq tushumlarini oshirishda soliq boshqaruvining nazorat funksiyasi samaradorligini oshirishda soliq madaniyatini oshirish, soliq mexanizmini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatga olish tartibini ixcham va tez shakllarini joriy etish lozim.

Ettinchidan, 2007 yil 23 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va uning sharhi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib

borish, kengroq matbuotdan foydalanishni, soliq to'lovchilar orasida soliq nazorati haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish lozim.

Sakkizinchidan, soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlarda nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo'lim tomonidan soliqqa oid qonunlar, Farmonlar va qarorlar talablarini bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

To'qqizinchidan, soliq qonunchiligini barqarorlashtirish soliq nazoratini huquqiy tartibga solishda soliq to'lovchilar uchun soliq yukini optimal taqsimotini ta'minlash va soliq sub'ektlarining soliq madaniyatini yuksaltirish lozim.

O'ninchidan, soliqlarni hisoblash va byudjetga o'tkazish jarayonida soliq nazoratini kuchaytirish va soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy jazo choralarini qonunchilik me'yorlarini soliq to'lovchiga tushunarli holda to'liq belgilash lozim.

## **XULOSA**

Magistrlik dissertatsiya ishining xulosa qismida yuqorida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalariga va ishni yozish jarayonida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida, bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish masalalari yuzasidan quyidagi asosiy xulosa va takliflarimizni aks ettiramiz.

1. Moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig'indisidir. Moliyaviy nazorat har bir korxonaga va muassasa faoliyatining moliyaviy ishochligini aniqlash va mustahkamlashning muhim qurolidir hamda har bir korxonaga va tashkilotning joriy xo'jalik-moliyaviy faoliyati holati, natijasi va samaradorligini aniqlashga imkon beradi va istiqbol uchun aniq va ishonchli rejalar ishlab chiqish zaminini yaratadi. Boshqacharoq aytadigan bo'lsak, moliyaviy nazorat iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga ob'ektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda qaraladi:

- barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartibga solingan faoliyati;

- moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi.

2. Moliyaviy nazorat quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;

ikkinchidan, davlat va mahalliy korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ularning ixtiyorida yoki kundalik boshqaruvida bo'lgan pul mablag'laridan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini tekshirish;

uchinchidan, yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitob, hisobot va pul mablag'larini saqlash va sarflashning qonunchilik bilan o'rnatilgan talablariga rioya etilishini tekshirish;

to'rtinchidan, ishlab chiqarishning ichki zahiralari aniqlash;

beshinchidan, moliyaviy intizom buzilishi hollarini bartaraf etish va ogohlantirish.

4. Korxonalarda soliq nazoratini to'g'ri va oqilona tashkil etilishi ularning kelgusida qonuniy ravishda faoliyat yuritishlari uchun muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Soliq nazorati samaradorligini oshirish, soliq qonunchiligini buzilishini keskin kamaytirish va soliq organlari xodimlarining nazoratni qonuniy amalga oshirishini ta'minlash yo'llari bizningcha qo'yidagilardir:

- soliqqa tortishning murakkabligini va tez-tez o'zgartirishlar kiritishni kamaytirish;
- soliq qonunchiligining mukammalligini ta'minlash;
- korxonalarining daromad olib ishlashlariga iqtisodiy va ma'muriy mexanizmlar orqali imkoniyatlar yaratish;
- nazorat organlari faoliyatini takomillashtirish;
- soliq to'lovchilar - tadbirkorlarning xuquqiy va iqtisodiy bilimini oshirish;
- nazorat qilinadigan korxonalarni tanlashning ilmiy asoslangan usullarini, yaxshi samara beradigan variantlarini ishlab chiqish lozim (respublikamizda tekshirilayotgan korxonalar qanday mezonga asosan tanlab olinayotganligi sirligicha qolmoqda);
- joylarga bormasdan soliq organining o'zida soliq tekshirishlarini o'tkazishni tashkil qilish lozim;

5. Mamlakatimizda moliyaviy nazoratni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni beramiz:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorati to'g'risidagi qonun ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozim. Ushbu qonunda moliyaviy nazoratni olib borish maqsadi, moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari, moliyaviy nazoratni amalga oshirish shakl va



usullari, moliyaviy nazorat turlari, moliyaviy nazoratni amalga oshirishda nodavlat tashkilotlarining vakolatlari va boshqa umumiy me'yorlar o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak.

Moliyaviy nazorat to'g'risidagi qonunchilikning qabul qilinishi amaliyotda uchrab turgan bir qancha muammolarning echimini belgilab beradi. Masalan, moliyaviy nazorat tushunchasining yoki uni amalga oshirish shakl va usullarining turlicha talqin qilinishi yoki qo'llanilishinining oldini oladi. Bundan tashqari moliya sohasida qonuniylik va intizomni ta'minlashni yanada mustahkamlaydi;

ikkinchidan, moliyaviy nazoratni amalga oshirishda nodavlat sektorini yanada takomillashtirish lozim. Buning uchun davlat organlarining ma'lum bir vakolatlari nodavlat tashkilotlariga berish lozim. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazoratni amalga oshirish maqsadida auditorlik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin ularning yanada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, mustaqilligini yanada oshirish, davlat hokimiyati organlarining aralashuviga to'liq barham berish lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida nodavlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishni turli yo'llar bilan rag'batlantirish lozim;

uchinchidan, nazorat organlari xodimlarini ular keltirgan iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida mehnatlarini baholash, bunda ularning turli qonunbuzarliklarni oldini olishga doir faoliyatlari uchun rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish zarur;

to'rtinchidan, davlat korxonalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish jarayonida byudjet mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish lozim;

beshinchidan, moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida texnika vositalaridan keng foydalanishni yaxshi yo'lga qo'yish lozim. Davlat organlari, davlat korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarining pul mablag'larini taqsimlash va undan foydalanilishiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni yagona kompyuter tizimiga joylashtirish lozim. Bu moliyaviy nazoratni masofadan turib

amalga oshirish imkoniyatini beradi yoki moliyaviy nazoratni amalga oshirishda ko'p muddatni talab etmaydi.

O'ylaymizki ushbu taklif va xulosalar amaliyotga tadbiq etilishi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy nazorat qilish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Norma, 2014 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. Norma, 2014 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya xisobi to'g'risida" gi Qonuni 1996 yil 30 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 1998 y 24 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
7. O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni 26 avgust 2004 y.
8. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni (yangi tahriri), 2012 yil 2 may.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari,**

#### **Vazirlar Mahkamasining qarorlari.**

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 iyundagi PF-3093 sonli «O'zbekiston Respublikasi hisob palatasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi PF-3665-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 sentyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida»gi PQ-186-sonli qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-1257-son qarori

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF - 4296-sonli Farmoni
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2012 yil 16 iyuldagi PF-4453-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli Qarori.
- 16.«Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari-yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 6 mayda 1573-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
17. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug'i «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tekshirish o'tkazish va tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida». O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 29 dekabrda 1650-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
18. «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 3 sentyabrda 1712-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari**

19. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga hamjamiyatimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. – T.: O'zbekiston, 2004 y.

20. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005 y.
21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
22. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010 y. – 56 b.
23. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: “O'zbekiston”, 2011 y. – 48 b.
24. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida – T.: “O'zbekiston”, 2011 y. – 440 b.
25. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: “O'zbekiston”, 2012 y. – 36 b.
26. Karimov I.A. 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.

#### **IV. Asosiy adabiyotlar**

27. B.A.Musaev, Z.X.Srojiddinova. Kontrolno-ekonomicheskaya rabota finansovix organov. O'quv qo'llanma. 2006 y.
28. Vaxobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya. 2008 y.
29. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqruv tahlili. Darslik – T.: “Sharq” 2005 yil.
30. Do'stmuratov R.D. Audit asoslari.-Toshkent: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi, 2003.-612 b.

31. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma / – Toshkent, 2009 – 192 bet.
32. Malikov T.S., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T: “Iqtisod-Moliya”, 2010 yil, 660 bet,
33. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari.-T.:TMI. 2004. - 348 b.
34. Tulaxodjaev M.M.,Ilhomov Sh.I.va boshq. Audit.-Toshkent:TDIU, 2008.-608 b.
35. Fayziev T.Yu. Audit.-Toshkent: TMI, 2006.-420 b.
36. Fayziev Sh.N., Avloqulov A.Z. “Audit” fanidan ma’ruza matni.- Toshkent: TMI, 2010.-510 b.
37. Yaxshiboev G'. Moliyaviy nazorat// O'quv qo'llanma.-Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA”, 2008.214-271-b.
38. Raximova A., Xojiev E. Moliya huquqi. Darslik. —T.: TDYuI, 2002.
39. Toshmurodova B. Soliq nazorati. O'quv qo'llanma. T.-.: Iqtisod-moliya, 2007 y.

## **V. Qo'shimcha adabiyotlar**

40. Abruev U. O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy maqsadlari va o'ziga xosligi. // J. Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2008. – №8. – 28-32b.
41. Bo'ronov B. Abduraximov K. Davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. // J. Soliq solish va buxgalteriya hisobi. , 2008, № 5. - 15-20 b.
42. Moliyaviy boshqaruv / Mualliflar jamoasi R.R.Hasanov, N.H.Haydarov, T.S.Malikov va boshq.; O'zRDJQNA. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 y.
43. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi (o'quv qo'llanma)/ Toshkent Moliya instituti – Toshkent – 2009. 296 bet.
44. Ibrahimov A.T., Raximov M.Yu. “Boshqaruv tahlili” T.: 2004 yil

45. Pardaev M.Yo., Abdukarimov I.T “Iqtisodiy tahlil” T.: Mehnat 2004 yil

## **VI. Internet saytlari**

46. <http://www.uza.uz> (O'zbekiston Respublikasi Hukumati)

47. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

48. <http://www.soliq.uz> (Davlat soliq qo'mitasi)

49. <http://www.stat.uz> (Davlat statistika qo'mitasi)

50. <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)

51. <http://www.cer.uz> (Iqtisodiy tadqiqotlar markazi)

52. <http://www.tdiu.uz> (Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti)

53. <http://www.tfi.uz> (Toshkent Moliya instituti)

54. <http://www.chamber.uz> (Savdo-sanoat palatasi)